

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI
“MOLIYA” KAFEDRASI**

“XORIJIY MAMLAKATLARDA G‘AZNACHILIK TIZIMI”

**5230600 -“Moliya”- ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Moliya” kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

«____»_____ 2017 y.

Ilmiy rahbar: _____ dots. B. Tog‘ayev

TOSHKENT – 2017

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
1-BOB XORIJIY MAMLAKATLARDA G'AZNACHILIK TIZIMINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	7
1.1. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining vujudga kelishi, ularning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....	7
1.2. Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti mablag'larini boshqarishda g'aznachilik tizimidagi islohotlarning rivojlanish bosqichlari.....	15
1-bob bo'yicha xulosa.....	22
2-BOB XORIJIY MAMLAKATLARDA G'AZNACHILIK TIZIMINING AMALIY HOLATI TAHLILI.....	23
2.1. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining amaldagi holati tahlili.....	23
2.2. Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida yagona g'azna hisob raqamini yuritilishining amaldagi holati tahlili.....	39
2-bob bo'yicha xulosa.....	
3-BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI G'AZNACHILIK TIZIMINI ISLOH QILISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	48
3.1. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish masalalari.....	48
3.2. O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimini rivojlantirishda ilg'or xorij tajribalarni qo'llash imkoniyatlari.....	52
3-bob bo'yicha xulosa.....	65
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	68

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimini shakllanishi va rivojlanishi, davlat byudjeti mablag'larini boshqarishda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bugungi kunning asosiy talabidir. Mamlakatimizda ham mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan oldimizga ulkan vazifalar qo'yilgan, jumladan: "...oldimizda markaziy boshqaruv organlari - Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va rakobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, bojxona tizimi va boshqa idoralar faoliyatini tubdan yaxshilashga doyr kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi ham turibdi."¹

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, g'aznachilik tizimini rivojlantirishda ilg'or xorij tajribasi qay darajada muhim va dolzarb ekanligini bildiradi.

Jahon tajribasiga asoslangan holda bugungi kunda dunyo miqyosida g'aznachilik tizimini o'rganishda moliya siyosatini tubdan isloh qilish va hayotga tadbqiq etish jarayonida, moliyaviy resurslardan, aholining moddiy va ma'naviy darajasini oshirish, ijtimoiy madaniy tadbirlarga mablag'larni sarflanishini oshirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda moliyani boshqarish asosan g'aznachilik tizimi orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotda kiritish bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri desak xato bo'lmaydi, chunki davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati byudjet mablag'laridan to'g'ri foydalanish uchun byudjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

¹ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisida "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" mavzusidagi nutqi, 22 bet, Toshkent, O'zbekiston, 2016 yil.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "...barchamiz so'zsiz tushunamiz, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish eng avvalo iqtisodiy va moliyaviy organlarning faoliyati samaradorligiga bog'likdir. Ular yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqishi, balki amalga oshirishni ta'minlashi zarur."²

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda davlat dasturlarini moliyaviy ta'minlash va davlat mablag'laridan oqilona foydalanishi ustidan nazorat o'rnatish ishida g'aznachiliksiz muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Davlat byudjeti g'azna ijrosining joriy etilishi davlat mablag'larini boshqarish tizimining samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida qo'llanilayotgan g'aznachilikning yagona hisob raqami kontseptsiyasiga kassadagi naqd pul oqimlarini va pullik operatsiyalarini boshqarishni amalga oshiradi. Bunda faol g'aznachilikning yagona hisob raqamida faoliyat ko'rsatadi va markazlashtirilgan buxgalteriya nazoratini amalga oshiradi.

Bugungi kunda Davlat byudjetini shakllantirishda uning ham xarajatlar ham daromadlar qismini belgilash muhimdir, chunki byudjetining daromatlari va xarajatlari o'zaro bir-birini taqozo etib, uyg'unlashtiradi uni to'liq hisobga olmaslik, noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish ahamiyati beqiyos hisoblanadi, shu sababli Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti mablag'larini samarali boshqarishda davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik tizimiga o'tish zaruriyati yuzaga kelgan³.

Davlat mablag'larini samarali boshqarishda g'aznachilik tizimini shakllantirishda, tajriba almashish maqsadida PEMPAL loyihasi tashkil qilingan.

²Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasi, 2017 yil 14 yanvar, 17 bet.

³ Abruev U. O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy maqsadlari va uziga xosligi // Soliq solish va buxgalteriya hisobi-T., 2008. - № 8. - C. 28-30b.

PEMPAL loyihasining ilk yig'ilishi 2006 yil iyun oyida Varshavada bo'lib o'tgan, ikkinchi yig'ilish esa 2008 yilning 25-28 fevral kunlari Istambul, Turkiyada, 2012 16-18 iyun kunlari JARda bo'lib o'tgan. 2012 yilgi PEMPAL loyihasi 3 qism asosida bo'lib o'tgan: byudjet, ichki audit va g'aznachilik to'g'risida bo'lib o'tgan.

Albatta bunday loyihalarning amalga oshirilishi davlat byudjeti mablag'larini samarali boshqarishni amalga oshirishda, moliyaviy siyosatni to'g'ri yuritish byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishda o'z samarasini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. G'aznachilik tizimini takomillashtirishning xorij tajribasi va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining g'azna ijrosi istiqbollarini belgilash munosabatlari hisoblanadi

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Xorijiy mamlakatlarning g'aznachilik organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G'aznachiligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. G'aznachilik tizimini takomillashtirishning xorij tajribasi va O'zbekiston Respublikasida qo'llash imkoniyati bo'yicha xulosa va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalar:

- xorijiy mamlakatlarda davlat moliyasini boshqarishning nazariy uslubiy asoslari bo'yicha xulosalar taqdim etish;
- xorijiy mamlakatlarda davlat mablag'larini boshqarish tizimidagi islohotlarning tadrijiy rivojlanish bosqichlari tavsifini keltirish;
- xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining amaldagi holatini taqdim etish;
- xorijiy mamlakatlar moliya tizimida yagona g'aznachilik hisobraqamini yuritilishi holati tahlilini keltirish;
- O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf yuzasidan chora tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan tadbirlarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy va amaliy ahamiyati:

- davlat byudjetini boshqarishda g'aznachilik tizimining amaliy ahamiyati atroflicha talqin qilingan hamda ilmiy asoslangan xulosalarga kelingan;
- xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan;
- xorijiy mamlakatlarning g'aznachilik tizimidagi tajribalarini o'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari tadqiq etilgan;
- davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish istiqbollari tahlil etilgan;
- byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish imkoniyatlarining jahon amaliyoti tavsifi keltirilgan;
- davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash muddatlarini isloh qilish hamda uning sifatini yaxshilash yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati shuningdek, 6 ta jadval va 8 ta rasmdan iborat.

1-BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA G'AZNACHILIK TIZIMINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

1.1. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining vujudga kelishi, ularning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati

Tarixiy talqin, ilgari moliyaviy resurslarni boshqarish davlatlarning g'azna va g'aznachilik ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus xodimga yuklatilgan. Uning majburiyatlariga davlat g'aznasiga moliyaviy resurslar tushishi va ularning sarflanishi ustidan ma'lum darajada nazorat o'rnatish kiritilgan. Tor ma'noda "g'azna" pul tushadigan va aniq maqsadlar uchun to'lov o'tkaziladigan, ya'ni mas'ul mansabdor shaxslar pulni saqlaydigan joy degan tushunchani anglatgan.

U olingan va to'plangan boylikni uch qismga bo'lib, birinchi qismni ketgan xarajatga, ikkinchi qismni o'zining va oilasining ehtiyojlariga, uchinchi qismini esa aholining ijtimoiy manfaatlari uchun sarflashga undaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur.

Shu maqsadda 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakat strategiyasini ishlab chiqish yaqin kunlarda yakunlanadi."⁴

"G'azna" inglizcha "Treasure trove" so'zidan olingan bo'lib, insonlar tomonidan ma'lum bir maqsadlarda yerga ko'milgan oltin va kumushning topilishi hamda bu topilma podsholarga tegishli bo'lganligini anglatadi.

Sohibqiron Amir Temur: "Amr qildimki, ... Saltanatning har bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin".

⁴ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisida "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" mavzusidagi nutqi, 15 bet, Toshkent, O'zbekiston, 2016 yil.

Sohibqiron davlatida har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma bo'lgan. U davlatni butkul ishlarini: soliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar-bozorlar, hammomlar, yo'llar, suv inshootlarini tarmoqlarini nazorat qilgan, xodimlarni tekshirish va taftish ishlarini olib borgan. Konfutsiylik g'oyalari bo'yicha, davlat bu katta oila, podsho esa xalqlar otasidir. Jamiyatda boyliklar nisbatan tekis taqsimlanishi kerak. Soliqlarni me'yorda saqlash, yer ishlarini yaxshi bajarish, hammani o'z vazifasini bajonidil ado etishi zarur. Davlatning iqtisodiy siyosati uchta asosiy tamoyilga asoslanishi kerak: xarajatlarni iqtisod qilish, ya'ni tejab-tergab sarflash, xalq farovonligini ta'minlash, ortiqcha mahsulotlarni saqlash zarur.

G'aznachilikning vujudga kelish tarixi va g'azna ijrosi haqida iqtisodiy ta'limotlar. Moliyaviy monopoliyalarining aktivlari ortib borishi bilan, g'aznalar, ularning aktsiyalarini omonat tariqasida qabul qila boshladi. Shu tariqa g'aznada gerb qog'ozlari, pochta markalari, oltin va boshqa ikkinchi darajali aktivlar paydo bo'la boshladi. Markaziy bankning paydo bo'lishi va tijorat banklari tizimining takomillashuvi g'aznachilik tizimining quyidagi o'zgarishlariga olib keldi:

Rossiya tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1796-1806 yillarda Aleksey Ivanovich Vasilev(Алексей Иванович Василев)ning davlat g'aznachisi lavozimida ishlagan davrda juda ko'p ishlar qilingan. Uning davlat daromadlari va xarajatlari rejalarini tuzish, g'aznachilik hisoboti, shuningdek buxgalteriya hisobi bo'yicha yozgan kitoblari alohida e'tiborga loyiqdir.

G'aznachilik tizimining mohiyati va ahamiyati shundaki, davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjetining barcha daromadlarini Yagona g'aznachilik hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iboratdir.

G'aznachilik tizimiga bosqichma-bosqich o'tishning asosiy elementlari:

- huquqiy-me'yoriy baza yaratish;
- g'aznachilikning moddiy-texnik bazasini yaratish;
- g'aznachilik tizimi uchun kadrlarni tayyorlash;
- g'aznachilikning axborot tizimini yaratishdan iborat.


G'aznachilik tizimini joriy etilishining ijobiy natijalari:

- byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag'larini yagona g'aznachilik hisobvarag'idan to'g'ridan-to'g'ri ta'minotchilarning hisob raqamiga o'tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlarni qisqartirish;
- tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarini tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar tuzish vaqtida) dastlabki nazorat qilish;
- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh tasarruf etuvchilari tomonidan suiste'mol qilishni va noto'g'ri ishlatishni oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;
- davlat byudjetining daromadlari, xarajatlari qismini kassa ijrosining har kungi monitoringini o'tkazish;
- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish;
- qisqa fursatda davlatning moliyaviy resurslari real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash;
- vaqtinchalik xarakterda bo'lmagan byudjetning erkin mablag'larini, moliya bozorlarida samarali joylashtirib, undan olingan daromadni esa byudjet xarajatlarini to'liq moliyalashtirishga, byudjet taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzlari to'loviga yo'naltirish.

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining shakllanishi va rivojlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak masalan, Avstraliya tajribasida: Vazirlik maqomiga ega bo'lgan va to'g'ridan-to'g'ri hukumatga bo'ysinadigan G'aznachilik departamenti mavjud. Uning asosiy vazifalaridan biri tushumlarni yig'ishdan iborat. G'aznachilik departamenti tarkibida Soliq boshqarmasi joylashgan bo'lib, G'aznachilik departamenti shu boshqarma orqali soliq

to'lovchilar bilan muomalada bo'ladi va tashqi tushumlardan tashqari barcha soliq to'lovlarni yig'ib oladi, tashqi tushumlarni yig'ish bilan esa bojxona xizmati shug'ullanadi. Byudjetning xarajatlar qismining ijrosi byudjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida amalga oshiriladi. Mamlakatda byudjetdan mablag' oluvchilarni byudjet majburiyatlarining aniq huquqiy-me'yoriy hujjatlari qabul qilingan, shuningdek, byudjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatishning nazorat usullari mavjud bo'lib, ular tarmoq vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda G'aznachilik departamenti faol g'aznachilik rolini o'ynaydi. Avstraliyada davlat qarzlarini boshqarish G'aznachilikka yuklatilgan. G'aznachilik departamenti muomalaga qimmatli qog'ozlar chiqarishni, ularning hajmini, tarkibini va to'lov muddatini nazorat qiladi. Avstraliyada g'aznachilik vazifasini G'aznachilik Departamentidan tashqari Moliyaviy Departament ham shug'ullanadi. Mamlakatda davlatga qarashli mablag'lar g'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi. Moliyaviy Departament bankda yagona hisobraqamning amal qilish mexanizmi uchun shart-sharoit va usullarni belgilaydi.

Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish tajribalari. Osiyo mamlakatlarining rivojlangan davlat Yaponiyada ham o'ziga xos davlat moliyasini boshqarish tizimi yaratilgan. Unda asosiy o'rinni Moliya vazirligi egallaydi, buning isbotini quyidagi rasmdan ko'rib olsak bo'ladi:



Budjetni ijrosi bo'limi	G'aznachilik bo'limi	Huquqiy bo'lim	Moliya bo'limi
----------------------------	-------------------------	-------------------	-------------------

1- rasm. Yaponiyada davlat moliyasini boshqaruvchi organlar tavsifi⁵

Yaponiyada g'aznachilikni bajaradigan funksiyalarining tashkiliy sxemasi o'ziga xos xususiyatga ega. Bo'linmalarning nomidan ko'rinib turibdiki, Yaponiyada davlat moliyasini boshqarish maxsus ixtisoslashgan kichik bo'linmalarga (п о д р а з д е л е н и я) yuklatilgan.

Yaponiyada G'aznachilik bo'limi kunlarga bo'lingan moliya rejasini tayyorlaydi, shuningdek, byudjetni ijro etish bo'limi bilan davlatning Yaponiya bankdagi hisobraqamdan to'lanadigan to'lovlarni va tushumlarni nazorat qiladi. Barcha tushumlarni yig'ilishiga Moliya Vazirligi tarkibidagi Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamenti javob beradi. Soliqlar to'g'ridan-to'g'ri Yaponiya bankiga yoki vakolat berilgan tijorat banklariga, Milliy Soliq xizmati va Bojxona departamentining mahalliy bo'limlarida pochta tizimi asosida to'lanishi mumkin.

Qarzlarni boshqarish bo'limi Yaponiya bankining agenti sifatida qimmatli qog'ozlarni chiqarish, ularning tarkibi, hajmi va muddatiga taaluqli masalalarni hal etadi.

Avstraliyada davlatnig moliya-axborot tizimi faoliyat ko'rsatadi. Bunda Avstraliya byudjeti, uni ijro etish va

⁵ www.nauka-shop.com veb. internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

yig' ilgan tushumlarning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Mazkur axborot tizim orqali G' aznachilik Departamenti bilan Moliyaviy departament bo' limlari bilan mustahkam aloqa o' rnatilgan hamda bundan tashqari tarmoq departamentlari bilan aloqa bog' langan. Mamlakatda bunday tizimning mavjudligi har doim davlatning moliyaviy resurslari to' g' risidagi tezkor umumiy axborotlarni olish imkonini beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki davlat moliyasini boshqarish iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda G'aznachilik yoki bir nechta davlat organlari orqali amalga oshiriladi.

G'aznachilik davlatning moliyaviy resurslarini boshqarishning yangi usuli bo'lib, davlat budjetning barcha daromadlarini jamlash va taqsimlashdagi yangicha tamoyil va mexanizmlarni amalda qo'llashdir. Qolaversa, bu budjetning har bir so'mini oqilona ishlatishni ta'minlovchi mexanizmdir. Markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining budjet mablag'laridan oqilona foydalanish, budjet intizomiga rioya qilish, dastlabki va joriy nazoratga urg'u berish, budjet muassasalarining debitorlik va kreditorlik qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik bu g'aznachilik tizimining samarasi hisoblanadi.

Ya'ni bu tizim quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- imzolangan shartnomalar ro'yxatiga ko'ra xarajatlar summasi va to'lov ijro etilishi muddati ko'rsatilgan holat ta'minlanadi;
- yagona g'aznachilik hisobvarag'ida pul mablag'i tushumining mavjudligi va miqdori real vaqda yaqqol ko'rinadi;
- tasdiqlangan xarajatlar smetasi bo'yicha joriy kunda to'lanishi lozim bo'lgan, avans to'lovlar va boshqa tuzatishlarni hisobga olgan holda summalar hisobi yaqqollashadi;
- barcha hisoblar amalga oshirilgandan so'ng, oxirgi to'lovdan keyingi qoldiq mablag' miqdori ko'rinadi;

- yagona g'azna hisobraqamiga pul mablag'lari tushumining hajmi tushgan zahotiy oq butun tizim qatnashchilariga aniq va ravshan ma'lum bo'ladi.

Xalqaro Valyuta Fondi ekspertlari Barri Potter va Jek Daymontning e'tirof etishicha, "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tarkibidagi ko'pchilik mamlakatlar davlat moliyasini boshqarishda g'aznachilik tizimiga suyanishadi va bunda g'aznachilik tizimining Moliya vaziri tomonidan boshqarilishi davlat mablag'larini ishlatilish samaradorligini va ularning o'z vaqtida va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat etish sifatini ham sezilarli darajada oshiradi."⁶

Byudjetning G'azna ijrosi modelini quyidagi asosiy yo'nalishlarga qarab bo'lishimiz mumkin:

1. G'aznachilikning roli barcha davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin:
 - a) Passiv, budjet tashkilotlariga mablag' ajratish bilan cheklanadi;
 - b) Aktiv, yudjet mablag'larini ajratish bilan bir qatorda yuridik majburiyatlar va ba'zi to'lov turlariga cheklovlar o'rnatadi;
 - v) Giperaktiv, oldindan belgilangan kriteriyalar asosida ba'zi xarajat operatsiyalarini o'tkazishga ruxsat berishi yoki ta'qiqlashi mumkin;
2. Byudjetning G'azna ijrosi (BG'I) asosiy instrumentlari:
 - a) Byudjet majburiyatlari limitlari;
 - b) Byudjetva moliyaviy limitlar;
 - v) Byudjet assignovaniyalari va boshqalar.
3. G'aznachilikning asosiy funktsiya bo'yicha. Bu budjet daromadlari va xarajatlari kassa ijrosi bo'lib, pul mablag'larini boshqarish, yagona hisob-varaqni boshqarish, davlat qarzlarini boshqarish va boshqalar.

1-jadval

Byudjet g'azna ijrosining asosiy instrumentlari va g'aznachilik organlari roli⁷

⁶ <http://www.webeconomy.ru> internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.


⁷ <http://www.webeconomy.ru> internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

Mamlakat	G'azna organlari roli	Instrumentlar
AQSh	Giperaktiv	Byudjet assignovaniyalari
Buyuk Britaniya	Giperaktiv	Byudjet majburiyatlari limitlari
Yaponiya	Passiv	Byudjetva kassa limitlari
Fransiya	Aktiv	Byudjet majburiyatlari limitlari
Braziliya	Aktiv	Xarajatlar turi bo'yicha budjet vamoliyaviy limitlar
Avstraliya	Aktiv	Byudjet majburiyatlari limitlari
Kanada	Passiv	Byudjet majburiyatlari limitlari
Italiya	Passiv	Byudjet majburiyatlari limitlari
Germaniya	Passiv	Byudjet majburiyatlari limitlari

Buyuk Britaniya va AQShda G'aznachilik va Moliya Vazirligi yagona organ bo'lib, yuqori vakolatga ega va budjet ijrosii va nazorati giperaktiv ko'rinishda tashkil etilgan. Masalan, AQShda G'aznachilik iqtisodiy va moliyaviy funktsiyalardan tashqari prezident, vitse-prezident va ularning oilasini ko'riqlash, shuningdek moliyaviy surishtiruv ishlarini xam amalga oshiradi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun budjet ijrosi va uni tayyorlashni takomillashtirish, shu jumladan, G'aznachilik tizimini joriy qilish va uni barcha zaruriy jihozlar, axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ishlari amalga oshiriladi.

Davlat budjetining G'aznachilik tizimi joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi. (2-rasm) Respublikada davlat moliyasini isloh qilish dasturining maqsadlari xarajatlarni samarali boshqarish, pul-kredit intizomini mustahkamlash va ajratmalarni oldingi vazifalarni nazarda tutgan holda taqsimlash, budjet ijrosi va budjet nazoratini samarali ta'minlash, uning tiniqligini oshirish va davlat mablag'larini ishlatganligi uchun hisobotni takomillashtirishga yo'naltiriladi.



2-rasm. Davlat budjetining G'aznachilik tizimi joriy etilishining ijobiy natijalari⁸

Halqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Davlat G'aznachilik tizimining etalon yoki namunaviy modeli mavjud emas. Shuning uchun, G'aznachilikka davlat boshqaruvi organi sifatida emas, balki G'aznachilik funksiyalari asosida davlat moliyaviy resurslarini boshqarish funksiyalari jixatidan yondoshish to'g'ri bo'lishli mumkin.

Fransiya, Braziliya va Avstraliyada ham G'aznachilik bir qator vakolat va imtiyozlarga ega. Kanada, Germaniya va Italiyada esa G'aznachilik funksiyalari keng tashkil etilmagan.

O'zbekiston Respublikasida budjet ijrosini G'aznachilik tizimi orqali amalga oshirish bilan bir qatorda, mazkur G'aznachilik tizimlari rivojlangan davlatlarda qanday yo'lga qo'yilganligi masalasi katta qiziqish uyg'otadi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish uchun Hukumat tomonidan ajratilgan mablag'lardan tashqari Jahon banki tomonidan - 14,2 mln. dollarlik kredit,

⁸ Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod – moliya. 2008, 47-bet.

Yaponiya hukumati tomonidan -2,8 mln. dollar, TASIS tomonidan - 2,8 mln. dollar va Islom taraqqiyot banki tomonidan - 0,2 mln. dollarlik grantlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

G'aznachilik tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlariga mos holda davlat xarajatlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan tashkiliy-xuquqiy munosabatlarning yig'indisidan iborat.

Bu munosabatlar davlat budjetining daromad va xarajatlari bo'yicha amaliyotlarni qamrab olganligi sababli, O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarishning markazidan o'rin egallaydi.

1.2. Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti mablag'larini boshqarishda g'aznachilik tizimidagi islohotlarning rivojlanish bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarida g'aznachilikni joriy etishning qator afzalliklari mavjud, Davlatning moliyaviy resurslari, shu jumladan, byudjet mablag'lari va maqsadli jamg'armalar mablag'larini jalb qilish asosida davlatni moliyaviy resurslarining tezkor boshqarilishini amalga oshirish mumkin. Byudjetning maqsadli va samarali ijro etilishi ustidan muttasil hamda samarali nazorat qilib borishni ta'minlash imkoniyati paydo bo'lishi singari uning asosiy afzalliklari bilan bog'likdir. Davlat moliyasini boshqarishning g'aznachilik tizimi barcha davlat resurslarining g'aznachilikning yagona hisobraqamlarida jamlanishini va barcha byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan g'aznachilik bo'limlarida o'z shaxsiy hisobraqamlari ochilishini nazarda tutadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, byudjet g'aznachilik asosida ijro etilganda vaqtinchalik kassa tafovutlari amalda barham topadi, butun birlamchi to'lov hujjatlari aylanishi g'azna muassasasi qo'lida to'planadi, hamda byudjetning ijro etilishi oydinlashadi, tahlil sifati va tezkorligi oshadi. G'aznachilikni joriy etish davlat moliyasini boshqarishning mavjud tizimini yanada takomillashtirishga ko'maklashadi. G'aznachilik

muassasasidan o'z vaqtida va muhim axborot olinishi tufayli Moliya Vazirligi tomonidan moliya tizimi hamda iqtisodiyotdagi qisqa muddatli kundalik holatlarni tezkor aniqlashga yordam bergan holda, mamlakat byudjetining ta'sirchan rolini kuchaytiradi. Bunday tizimda byudjet bozorga doir ma'lumotlarga va yuzaga keladigan muammolarga monand ravishda munosabatda bo'lish, nomaqbul holatlarning oldini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, davlat byudjetini samarali nazorat qilish va uning taqchilligini boshqarish ta'minlanadi

Davlat mablag'larini boshqarish, davlat o'zining moliyaviy siyosatini olib borishi, moliyaviy rusurslarni boshqarishi va moliyaviy qonunchilikni ishlab chiqishdan iborat bo'lgan faoliyatidir. Har qanday davlatning moliyaviy tizimi har xil bo'lgani kabi, undagi davlat moliyasini boshqarish tizimi ham har xildir. Bunda asosiy o'rinni davlatning tuzilishi o'ynaydi. Davlat moliyasini boshqarish davlat boshqaruvi tizimiga asoslangan holda turli mamlakatlarda farqlanadi. Davlat moliyasini umumiy boshqaruvini turli mamlakatlarda turli organlar amalga oshiradi, biroq barcha mamlakatlarda bu funksiyani oliy qonun chiqaruvchi organ amalga oshiradi. Mamlakat oliy qonunchilik organlariga ko'ra AQShda bu Kongress, Buyuk Britaniyada Parlament, Germaniyada Bundestag, Rossiyada-Federal Sovet O'zbekistonda esa Oliy majlis amalga oshiradi. O'z navbatida davlat mablag'larini operativ boshqaruvi, davlat moliyaviy apparati tomonidan amalga oshiriladi, apparat strukturasi esa o'z navbatida davlatning boshqaruviga bog'liq. Ular mamlakat moliyaviy siyosatini hayotga tadbqiq qilib, tezkor (operativ) moliyaviy rejalashtirishni, hisob-kitob ishlarini va nazoratni amalga oshiradi.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlar g'aznachilik organlariga har xil vazifalar yuklatilar, ularning mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yangi vazifalar yuklatiladi yoki bekor qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda g'aznachilik tasdiqlangan byudjet asosida byudjet tashkilotlariga faqatgina resurslar ajratish bilan cheklangan.

G'aznachilikni tashkil etishning asosiy maqsadi davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarilishiga ta'sir etishdan iboratdir. G'aznachilik deb ataladigan organlar davlat moliyasini boshqarishda taalluqli turli vazifalarni bajaradilar .

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki har bir mamlakat byudjet tizimi o'z xususiyatiga ega, davlat tashkiliy tuzulmasi bilan, hududiy-ma'muriy bo'linganligi bilan, iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan, uning strukturaviy tuzulmasi bilan ajralib turadi.

Xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti mablag'larini boshqarishning ikki usuli mavjud: Unitar davlatlar (Buyuk Britaniya, Avstraliya, Frantsiya, Italiya, Yaponiya va boshqalar) boshqaruv ikki bosqichda amalga oshiriladi.

A) Markaziy boshqaruv

B) Mahalliy boshqaruv

Federal davlatlar (AQSh, Kanada, Rossiya Federatsiyasi, Shvetsariya va boshqalar) - bularda esa davlat boshqaruvi uch bosqichda amalga oshiriladi.

A) Markaziy boshqaruv

B) Federatsiya a'zolari boshqaruvi

C) Mahalliy boshqaruv

Jahon amaliyotida g'aznachilik, yoki boshqa davlat organlari orqali boshqarish, davlat moliyasini boshqarish samaradorligini va shu davlat iqtisodiyoti rivojlanishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi amalda ishlayotgan g'aznachilikning yagona hisobraqami kontseptsiyalardan va kassadagi naqd pul oqimlarini va pulli operatsiyalarni boshqarishning ushbu usuli: bunda faol g'aznachilikning yagona hisobraqami faoliyat ko'rsatadi va markazlashtirilgan buxgalteriya nazorati amalga oshiriladi. Barcha byudjet mablag'lari g'aznachilikning yagona hisobraqamida to'planadi, to'lovni amalga oshirish uchun so'rovnoma va uni tasdiqlaydigan hujjatlar g'aznachilikka yo'naltiriladi, g'aznachilik nazorat qiladi, to'lovlarni rejalashtiradi va to'lovni amalga oshiradi.


Xorijiy mamlakatlar tajribasida, g'aznachilikning asosiy vazifalari bir-biriga o'xshaydi:

- davlat byudjetining kassali ijrosini amalga oshirish;
- davlatning moliyaviy aktivlarini boshqarish;
- davlat qarzlari boshqarish;
- davlatning moliyaviy resurslarini hisob-kitobini yuritish, yig'ish, ishlash, tahlil qilish tizimini faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- davlat moliyasining holati to'g'risida doimiy ravishda hisobotlarni tayyorlash va taqdim qilish;
- moliyaviy nazoratning qoidalarini va mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish.

Umumiy axborotni tayyorlash muddati hisobotning murakkabligiga bog'liq. Kassa operatsiyalari bo'yicha umumiy axborot har kuni tayyorlanadi, tarmoq vazirliklaridan kengaytirilgan axborotni olish mumkin.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini bir qator davlat organlari amalga oshiradilar, biroq ular ichida asosiy o'rinni g'aznachilik egallaydi, unda davlat byudjetini ishlab chiqish, tuzish va bajarish, soliq siyosati, xalqaro moliyaviy munosabatlarni moliyaviy va iqtisodiy rejalashtirish va uning ustidan nazorat qilish yuklatilgan. Bundan tashqari mamlakatda Bojxona bojlari va aktsizlar departamenti va Ichki daromadlarni boshqarish departamenti faoliyat yuritadi. Ulardan birinchisining asosiy vazifasiga bojxona va aktsiz yig'imlarni jamlashdan tashqari, bu sohadagi qonunlarning bajarilishi yuklatilgan, bo'lsa ikkinchisi to'g'ri soliqlarni undirilishini boshqaradi. Mamlakatning davlat qarzlar bilan Angliya Banki shug'ullanadi. Uning huquqlariga zayomlar chiqarish, kapital zayomlar summasini so'ndirish va joriy qarzdorlik bo'yicha barcha operatsiyalarni amalda yuritish kiradi.

Yevropa davlatlarining rivojlangan davlatlarida biri Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagicha taqsimlangan.




3-rasm. Buyuk Britaniya davlat moliyasini boshqaruvchi organlar tavsifi⁹

Quyidagi keltirilgan rasmda Buyuk Britaniya davlat moliyasini boshqarilish tizimi aks etgan. Rasmdan ko'rib o'tilganidek, asosiy boshqaruv G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi. Ahon tajribalari ko'rsatadiki, turli mamlakatlar g'aznalariga har xil vazifalar yuklatilgan edi, ularning mahalliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, yangi vazifalar yuklatilib yoki bekor qilinaq edi. Uzoq davom etgan urushlar sababli davlat boyligining kamayishi oqibatida g'aznalarga yangi vazifa, ichki va tashqi qarz majburiyatlarini ishlab chiqish yuklatilgan edi. Ba'zi mamlakatlarda g'aznachilik tasdiqlangan byudjet asosida byudjet tashkilotlariga faqatgina resurslar ajratish bilan cheklangan taqdirda, bu g'aznachilikning roli sust bo'lishi mumkin. Agar g'aznachilikning roli faol bo'lganda xarajatlarni to'lash majburiyatlarining cheklovlarini oldindan ko'zda tutilgan mezonlar asosida belgilaydi.

⁹ <http://www.hm-treasury.gov.uk> internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

G' aznachilik davlat qarzlarini boshqarishda turli bosqichlarda qatnashishi mumkin va g' aznachilik bajarilgan hisob-kitob operatsiyalari uchun javob beradi. “Lekin shuni aytib o' tish kerakki, davlat moliyasini boshqarishning va tashkiliy tuzilishi bir xil bo' lgan g' aznachilik tizimining yagona modeli mavjud emas. Har bir mamlakatda g' aznachilikni boshqarmalari va bo' linmalarining tuzilishi hamda ularning aniq funksiyalari turlicha belgilanadi. Bundan tashqari, g' aznachilik tizimining vazifalari vaqt o' tishi bilan, albatta, o' zgaradi¹⁰.”

Mamlakatda byudjetni shakllantirish, tuzish jarayonlari 1997 yildan boshlab maqsadli dasturlashtirish usuliga o' tilgan. Vazirlik va idoralar kelgusi yillarda amalga oshiriladigan xarajatlar uchun dasturlar ishlab chiqadi va mazkur dasturlarni moliya vazirligi ko' rib chiqadi. Latviyada 2002 yildan boshlab o' rta muddatli byudjetlarni rejalashtirish jarayoni boshlangan. O' rta muddatli byudjetni rejalashtirishda kelgusi yil uchun kutilayotgan yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishdagi o' sish sur' ati, ishsizlik, inflyatsiya darajasining o' sishi va kamayishi asos qilib olinadi.



¹⁰ Иванова Н.Г, Маковник Т.Д. Казначейская ситема исполнения бюджетов. -СПб: Петер, 2001. 51стр.

4-rasm. Rossiya Federatsiyasi davlat moliyaviy boshqaruvi tavsifi¹¹

Rossiyada davlat moliyasining operativ boshqaruvi asosan Moliya vazirligi, Markaziy bank va Federal G'aznachilik tomonidan amalga oshiriladi. Moliya vazirligining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- davlatning yagona moliyaviy siyosatini ishlab chiqish va tadbiq etish;
- davlat byudjeti loyihasi va ijrosini amalga oshirish;
- byudjet mablag'lari sarfini nazorat qilish;
- bozorning rivojini ta'minlash.

O'z navbatida federal g'aznachilik funksiyalari ham mavjud va ular quyida aks ettirilgan:

- byudjet ijrosini;
- byudjet kassa ijrosini nazorat qilish va ta'minlash;
- byudjet mablag'lari ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- yagona hisobraqamning operatsiyalarini boshqaradi;
- byudjetni rejalashtiradi;
- daromad va xarajat reestrini olib boradi.

Bundan tashqari Federal G'aznachilik quyidagi vazifalarni bajaradi:

- soliqdan tushgan daromadlarni byudjetlar va RF byudjet tizimi orasida taqsimlaydi;
- moliya vazirligiga federal byudjet ijrosi to'g'risidagi operativ ma'lumotlarni etkazib turadi.

Rossiyada davlat moliyasini boshqarishda Imperator Aleksandr 2 hukmronlik qilgan davrda yagona kassa masalasi qo'yilgan. Moliya vazirligi uchun kassa shuning uchun kerak edi. 1872 yilda Imperiyadagi g'aznachilikning yagona me'yoriy hujjati ishlab chiqildi, undagi qoidalarining mazmuni quyidagilardan iborat edi: g'aznachilar tomonidan turli xildagi tangalar va kredit

¹¹ <http://www.roskazna.ru>. internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

qog'ozlarini g'aznaga qabul qilish tartibi, bir yo'la va doimiy beriladigan pensiya va nafaqalarni to'lash tartibi, g'aznachilikdan qimmatli qog'ozlar uchun foizlar to'lash tartibi berilgan. Imperator Nikolay 2 hukmdorlik qilgan davrda Moliya vazirligi faoliyatida, jumladan, Bosh G'aznachilik Departamentida juda ko'p tarkibiy va sifat o'zgarishlari qilindi. 1890 yilga kelib g'aznachilikning tarkibini o'zgarishi bilan shtatlar soni yetarli miqdorda oshdi, bu faqatgina kirim-chiqim moddalarining umumiy sonini oshishi bilan emas, balki g'aznachilikning buxgalteriya kitobining alohida hisob-kitob hisobraqamlarning sonini oshishi bilan bog'liq edi.

1-bob bo'yicha xulosa

Birinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, g'aznachilik tizimining mohiyati va ahamiyati shundaki, davlat byudjetining g'azna ijrosi davlat byudjetining barcha daromadlarini Yagona g'aznachilik hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iboratdir.

G'aznachilik tizimini joriy etilishining ijobiy natijalari esa, byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag'larini yagona g'aznachilik hisobvarag'idan to'g'ridan-to'g'ri ta'minotchilarning hisob raqamiga o'tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlarni qisqartirish, tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarini tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar tuzish vaqtida) dastlabki nazorat qilish, moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh tasarruf etuvchilari tomonidan suiste'mol qilishni va noto'g'ri ishlatishni oldini olish

maqsadida joriy nazorat qilish, davlat byudjetining daromadlari, xarajatlari qismini kassa ijrosining har kungi monitoringini o'tkazish, davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish, qisqa fursatda davlatning moliyaviy resurslari real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash, vaqtinchalik xarakatda bo'lmagan byudjetning erkin mablag'larini, moliya bozorlarida samarali joylashtirib, undan olingan daromadni esa byudjet xarajatlarini to'liq moliyalashtirishga, byudjet taqchilligini kamaytirishga va davlat qarzlarini to'loviga yo'naltirish.

2-BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA G'AZNACHILIK TIZIMINING AMALIY HOLATI TAHLILI

2.1. Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining amaldagi holati tahlili

Xorijiy mamlakatlarda g'aznachilik tizimining amaldagi holatini tahlil qiladigan bo'lsak mamlakatimiz moliya tizimi bilan o'xshash Frantsiya davlati G' aznachilik tajribalarini keltirib o' tsak. Frantsiyada G' aznachilik funksiyalari Davlat G' aznasi va Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi o' rtasida bo' lingan. Har ikkala tashkilot yuqori tashkilotlarning ikkinchi pog' onasi hisoblanadi: Davlat G' aznasi Moliya Vazirligining, Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi Byudjet vazirligining tarkibiga kiradi.

Frantsiyada barcha moliyaviy resurslar G' aznachilikning yagona hisobraqamida yig' iladi, bu mablag' larning miqdori Markaziy Bankda joylashgan barcha tushumlar va to' lovlar yig' iladigan shu hisobraqam bilan nazorat qilinadi.

Davlat G' aznasi quyidagi huquqlarga ega:

- byudjet mablag' lari taqsimlovchilarining taqdim qilgan kirim orderlarini, shartnomalarda belgilangan qarz talabnomalarini

ijro qilish uchun qabul qiladi, shuningdek, qarz majburiyatlari bo' yicha naqd pullarni va davlat tashkilotlarining huquqi bo' lgan boshqa shakldagi tushumlarni oladi;

- buyruqqa asosan, kreditorlarning talabi bo' yicha taqdim qilingan hujjatlar asosida xarajatlarni to' lovini amalga oshiradi, shuningdek, sud qarorlarini ijro qiladi;
- davlat muassasalarini yoki ularning ishonchli vakillariga qarashli pul mablag' larni va moddiy boyliklarni saqlashni va qo' riqlashni ta' minlaydi;
- naqd pullar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni bajaradi;
- amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarni tasdiqlaydigan buxgalteriya hisob-kitobi bo' yicha yuritiladigan hujjatlarni saqlaydi;
- buxgalteriyada ularga yuklatilgan buxgalteriya hisob-kitobini olib boradi.

“Mamlakatda g' aznachilik organlari Davlat byudjetini to' ldirish va ijro qilishni ta' minlaydigan 4000 dan ortiq bo' limlariga ega. G' aznachilik organlari davlatning solikli va soliqsiz daromadlarini yig' ib oladi va kerakli nazorat ishlaridan keyin davlat mablag' larini sarflanishini amalga oshiradi. G' aznachilik organlari daromadlar tushumining va Davlat byudjeti xarajatlarining hisob-kitobini yuritadi. Bu vazifa har bir geografik departamentda tayinlangan va Bosh g' aznachiga yuklatilgan. Ularning amalga oshirgan moliyaviy operatsiyalari

to'g'risidagi ma'lumotlar har kuni G'aznachilikning Markaziy Hisob agentligi Bosh buxgalteriyasida ishlov uchun yig'iladi. Bundan tashqari, G'aznachilik organlari davlat tashkilotlarini ta'lim muassasalarini, ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar joy tashkilotlarini moliyaviy faoliyatini tekshiradi va nazorat qiladi"¹². Bosh G'aznachi joylardagi 27000 muassasalarni (davlat buxgalterlarini, davlat tashkilotlarini-ta'lim muassasalarini, ijtimoiy ta'minot va boshqaruv organlarini hamda ijtimoiy turar joy tashkilotlarini) nazorat qilishi shart.

Davlat buxgalterlari mintaqalar, departamentlar, kommunalar, shuningdek, mahalliy davlat tashkilotlari bo'yicha hisob-kitob yuritadilar. Davlat buxgalterlari byudjet mablag'lari taqsimlovchilarini moliyaviy maslahatchilaridir. Davlat G'aznasi quyidagilarni nazorat qiladi:

1. Daromadlar sohasida:

a) davlatning qarz talabnomalarini undiradi;

b) davlat muassasalarining har bir guruhi uchun qabul qilingan amaldagi qonun hujjatlarida va nizomlarda ko'zda tutilgan daromadlar olishga ruxsat beradi.

2. Xarajatlar sohasida:

a) byudjet mablag'larini taqsimlovchilarining vakolatlarini nazorat qiladi;

b) kreditlarni mavjudligi nazorat qiladi;

¹² Практика государственного управления во Франции: Государственное Казначейства : – Москва 2012г . стр 48.

c) qarz majburiyatlarida ko'rsatilgan muddatlarni nazorat qiladi;

d) xarajatlarni aniq byudjet tasnifi bo'yicha amalga oshirilishi

nazorat qiladi.

3. Mol-mulk sohasida:

a) mulk egalarining huquqlarni, imtiyozlarini, ipotekalarni va nazorat qiladi;

b) buxgalteriya hisob-kitobi olib boriladigan mol-mulkni saqlanishi nazorat qiladi.

G' aznachilik quyidagi daromadlarni yig' ilishini ta' minlaydi:

- to'g'ri soliqlar (daromad solig'i va to'g'ri mahalliy soliqlar, korxonalar daromadiga soliq);
- audio vositalaridan foydalanganligi uchun yig'im;
- davlatning soliqsiz to'lovlari (masalan, jarimalar), mahalliy hokimiyat boshqaruv organlari va mahalliy davlat tashkilotlarining soliq yig' imlari.¹³

Ushbu funksiyalarni bajarish uchun solikli to'lovlar va to'lovlarni yig'ishning avtomatlashtirilgan protseduralari ishlab chiqilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'laydigan 20000 ga yaqin soliq to'lovchilar to'lovlarni to'g'ridan-to'g'ri Markaziy bankning yagona hisobraqamga o'tkazadi, qolgan soliqlarning 50 foizi Tushumlar Direktorati tomonidan, 35 foizi Davlatning hisob-kitob yuritish bosh derektsiyasi tomonidan, 15 foizi Bojxona xizmati tomonidan yig' iladi.

¹³ Сборник документов Франко-российского сотрудничества 2011 г. №8. стр11.

Byudjetning xarajatlar bo' yicha ijrosi Byudjet direktorati tomonidan nazorat qilinadi. Byudjet derektorati o' z tizimiga qarashli moliyaviy nazoratchilar yordamida mablag' larni xarajat qilish sur' atlarini nazorat qiladi. Xarajatlar juda qattiq nazorat qilinadi. Frantsiyadagi G' aznachilik Avstraliyadagi G' aznachilik kabi davlatning ichki va tashqi qarzlarini boshqaradi, yuqorida aytib o' tganimizdek, muomalaga qimmatli qog' ozlarni chiqarishni nazorat qiladi, ularni hajmiga, to' lov muddatiga va tarkibiga bog' liq masalalarni echadi. Frantsiyada ham davlat moliya axborot tizimi samarali faoliyat ko' rsatadi. Mazkur tizimda byudjetni tayyorlash, byudjet hujjatlarini nashr qilish va byudjet ijrosi amalga oshiriladi. Shuningdek, Byudjet derektorati va tarmoq vazirliklarini bog' laydigan boshqa tizimlar ham mavjud. Buxgalteriya yozuvlari (provodkalar) asosida yagona hisobraqamdagi mablag' lar to' g' risida to' liq axborot olish uchun bir kun ketadi, har hafta to' liq kengaytirilgan ma' lumotlar olish mumkin. Davlat moliyasini boshqarish uni hisob-kitobini yuritish mablag' jalb qilish bilan olib boriladi. U davlat majburiyatlarini boshqaradi, ichki va tashqi mablag' ni jalb qiladi, ularning hisob-kitobini yuritadi va har yilgi davlat qarzlari to' g' risidagi hisobotni tayyorlaydi. Frantsiyadagi g' aznachilik tizimi faoliyatining eng muhim tomonlaridan biri shundaki, kadrlar masalasiga alohida e' tibor beriladi.

Frantsiyadagi Davlat G' aznasi organlarida 58000 xodim ishlaydi, o' tgan yillar mobaynida Davlat G' aznasi Bosh Boshqarmasi kadrlarni sifatli tanlash va xodimlarni samarali

boshqarishga alohida e' tibor beradi. 1998 yili talab darajasida kasb xodimlarini tayyorlashga yo' naltirilgan kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash amalga oshirilgan. Xodimlar guruhlariga qarab taqsimlangan:

- A guruhi: rahbarlik funksiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan darajali (litsenziyaga ega) davlat xizmatchilari;
- B guruhi: o' rta maxsus ma' lumotga ega, o' rta rahbarlik funksiyalarini bajarishga tayyorlanayotgan davlat xizmatchilari;
- C guruhi: maxsus kasb ma' lumoti to' g' risida diplomga ega davlat xizmatchilari.

Davlat G' aznasi Bosh Boshqarmasi G' aznachilik organlarining malakali xodimlari to' g' risida axborotlarni tarqatilishi bo' yicha faol ravishda ish olib bormoqda. Shu maqsadda uch yo' nalistda ish olib borilgan:

- Davlat G' aznasi xizmatiga kelgan xodimlarni boshlang' ich kasbga tayyorlash;
- Davlat G' aznasi xizmatida ishlayotgan xodimlarni kasb mahoratini oshirish;
- xizmat pog' onalaridan ko' tarilishni xohlovchi xodimlarni konkurs asosida tanlab, ularni rahbarlikka tayyorlash.

Quyidagi 2-jadvalda Frantsiyaning Davlat daromadlari va xarajatlari to' g' risida ma' lumot berilgan.

2-jadval

Frantsiyaning Davlat daromadlari va xarajatlari tavsifi 2015yil¹⁴ (mlrd. yevro)

Davlat daromadlari	Miqdori	Davlat xarajatlari	Miqdori
Jami tushumlar	1281	Mahalliy hokimiyat organlari byudjetining taqsimlanishi	1194
Davlat byudjeti	870	Kommunalar	38.4%
Mahalliy xokimiyat organlari byudjeti	366	Davlat tashkilotlari	11.9%
Audio yig'irlar	13	Departamentlar	19.9%
Ijtimoiy yig'irlar	31	Mintaqalar	6.6%
		Davlat sog'liqni saqlash muassasalari	23.2%
Davlat xarajatlari	2055	Bosh g'aznachilar	108ta
Joriy xarajatlar	1887	G'aznachilar	
Kapital xarajatlar	168	30ta mintaqaviy Axborot markazlarida 58000dan ortiq xodim	
G'aznachilikning yagona hisobraqami	580	Pensiyaonerlar soni	2227404 nafar
Pensiya to'lovlari	198	Xarbiy pensiyaonerlar	486362 nafar
Boshqa to'lovlar	432	Boshqa pensiyaonerlar	1741078 nafar

Har bir xodimga va “deontoloniya”¹⁵ ga bag' ishlangan axborot byulletenning 1995 yilgi “Davlat G' aznasining yangiliklari” nomli maxsus soni nashr qilindi. Mazkur tizimda mablag' lar harakati va ulardan maqsadli foydalanishi ustidan joriy va keyingi nazoratni kuchaytirishga oid qonunlarni, me' riy hujjatlarni, yo' riqnomalarni bilmasdan turib, g' aznachilik organlaridagi

¹⁴ Практика государственного управления во Франции: Государственное Казначейства. Сборник документов Франко-российского сотрудничества 2014 г. №8. стр19.

¹⁵ Deontoloniya yoki professional etika, ma'lum bir sohada tartib qoidalar uyg'unlashuvini aniqlab beradi. Deontoloniya ayrim holatlarda muntazamlik ko'rsatkichlarini ham anglatadi.

mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligisiz ishni tashkil etish mumkin emas. Shu bois respublikamizda ham g'aznachilik bo'limlaridagi kadrlar masalalarini hal etishda moliya, soliq, bank sohasida ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislar tanlab olinishi va kasbiy malakasi oshirilishi zarurdir.

Ushbu tashkilot davlat byudjeti loyihasini yaratadi va Konsolidatsiyalashgan fondga bo'lgan barcha tushumlarni nazorat qiladi, fond esa o'z navbatida G'aznachilikning yagona hisob raqami hisoblanadi. Buyuk Britaniyada G'aznachilik keng vakolatlarga egadir, ularni umumiy tarzda quyidagilarga bo'lish mumkin:

- Konsolidatsiyalashgan fondning to'lovlarini nazorat qiladi;
- Mamlakat moliyaviy aktivlarini nazorat qiladi;
- Davlat qarzini boshqaradi va qimmatli qog'ozlarni chiqarish muddatini va sonini belgilaydi;
- Hisob-kitob metodikasini belgilab beradi.

Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagi tartib asosida tuzilgan. G'aznachilik qarzlarini boshqarishni amalga oshiradi, g'aznachilikning bosh idorasi hisobraqamlarni ro'yxatdan o'tkazadi va hisob-kitoblarni yuritadi. Byudjetga tushumlar soliq va bojxona xizmati orqali, soliqdan tashkari yig'imlar esa departamentlar orqali yig'iladi.

G'aznachilik asosiy funksiyasi g'aznachilikning yagona hisobraqami, hisoblangan konsolidatsiyalashgan fondagi barcha tushumlarni nazorat qiladi. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan fondan to'langan barcha to'lovlar ham uning nazoratida bo'ladi. G'aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida har oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu reja qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talabni aniqlashda ishlatiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat qarzlarini boshqarish g'aznachilik funksiyasiga kiradi. Shuning uchun u davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni, ularning hajmini, tarkibini va to'lov muddatini aniqlaydi. Bir so'z bilan aytganda,

Angliya bankining agenti sifatida namoyon bo'ladi. G'aznachilikning bosh idorasi tasdiqlangan byudjet parametrlari doirasida departamentlarning to'lov qog'ozlari asosida pul mablag'larni ajratadi, u to'lovlar hisob-kitobini olib boradi. Ichki nazorat va auditni vazirlikning o'zi amalga oshiradi.

G'aznachilik davlat korxonalarini tashqaridan moliyalashtirishda limitlar orqali nazorat qiladi, xususiylashtirilgan tarmoqlardagi ma'lum departamentlarga karashli "oltin" aktsiyalardan tashqari moliyaviy aktivlarni boshqaruvchisi hisoblanadi. Davlat moliya axborot tizimi g'aznachilik rahbarligida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizim orkali byudjet tayyorlanadi, va tasdiqlangan byudjet mablag'lari darajasida xarajatlar ro'yxatga olinadi, tushumlarning ro'yxatga olinishi alohida amalga oshiriladi. Vazirliklar davlat moliya axborot tizimiga bog'langan, bundan tashqari, o'zlarining xususiy axborot tizimlariga ega. Buyuk Britaniyada davlat moliyasini boshqarish quyidagi tartib asosida tuzilgan. G'aznachilik qarzlarni boshqarishni amalga oshiradi, G'aznachilikni bosh idorasi hisobraqamlarni ro'yxatdan o'tkazadi va hisob-kitob yuritadi. Byudjetga tushumlar soliq va bojxona xizmati orqali, soliqlardan tashqari yig'imlar esa departamentlar orqali yig'iladi. G'aznachilik asosiy funksiyasi g'aznachilikning yagona hisobraqami hisoblangan konsolidatsiyalashgan fondagi barcha tushumlarni nazorat qiladi. Shuningdek, konsolidatsiyalashgan fondan to'langan barcha to'lovlar ham uning nazoratida bo'ladi. G'aznachilik daromadlarni va xarajatlarni balanslashtirish maqsadida har oyda moliya rejasini ishlab chiqadi, bu reja qisqa muddatli moliyalashtirishdagi talabni aniqlashda ishlatiladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, davlat qarzlarni boshqarish g'aznachilik funksiyasiga kiradi. Shuning uchun u davlatning

qimmatli qog'ozlarini chiqarishni, ularning hajmini, tarkibini va to'lov muddatini aniqlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, Angliya bankining agenti sifatida namoyon bo'ladi. G'aznachilikni bosh idorasi tasdiqlangan byudjet parametrlari doirasida departamentlarning to'lov qog'ozlari asosida pul mablag'lari ajratadi, u to'lovlar hisob-kitobini olib boradi. Ichki nazorat va auditni vazirlik o'zining kuchlari bilan o'tkazadi. G'aznachilik davlat korxonalarini tashqaridan moliyalashtirishda limitlar orqali nazorat qiladi, xususiylashtirilgan tarmoqlardagi ma'lum departamentlarga qarashli "oltin" aktsiyalardan tashqari moliyaviy aktivlarni boshqaruvchisi hisoblanadi. Davlat moliya axborot tizimi G'aznachilik rahbarligida faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizim orqali byudjet tayyorlanadi, va tasdiqlangan byudjet mablag'lari darajasida xarajatlar ro'yxatga olinadi, tushumlarning ro'yxatga olinishi alohida amalga oshiriladi. Vazirliklar davlat moliya axborot tizimiga bog'langan, bundan tashqari, o'zlarining xususiy axborot tizimlariga ega.

Latviyada byudjetning asosiy maqsadi-davlat uchun qancha mablag'lar kerakligini aniqlash, boshqa davlat xizmatlari, moliyaviy institutlar va o'z-o'zini boshqarish organlari bilan qonun hujjatlariga muvofiq ko'rsatilgan xarajatlarni daromadlar bilan ta'minlanishni to'g'ri asoslashdir¹⁶. Mazkur vazifalar g'aznachilik xizmatidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

¹⁶ Лукашина Ольга. Рекомендации по изучению налогового законодательства -: Рига.- 2012 г.

Latviyaning 2012 yil byudjet ijrosi bo' yicha asosiy normativ aktlar:

- Moliya va byudjetni boshqarish to' g' risidagi qonun.
- Byudjet tashkilotining moliya rejasini tuzish va hisobini yuritish to' g' risidagi Nizom.
- Hisob raqamlar xizmatining qoidalari.
- Byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi.
- Byudjet daromadlarining tasnifi.
- Buxgalteriya hisobini yuritish va statistik hisobotlarni tuzish to' g' risidagi me' yoriy hujjat.

Mamlakat byudjeti ikki asosiy bo' g' inga bo' linadi: Davlat byudjeti va o' zi-o' zini boshqarish organlari byudjeti. Davlat byudjeti asosiy byudjet va maxsus byudjetdan, o' z-o' zini boshqarish organlari byudjeti ham asosiy byudjet va maxsus byudjetdan iborat. Latviyaning 2008 yil byudjet jarayonlarini tartibga solishning asosiy normativ aktlari:

1. Har yili tasdiqlanadigan Byudjet to' g' risidagi qonun.
2. O' z-o' zi boshqarish organlari byudjeti to' g' risidagi qonun.
3. O' z-o' zini boshqarish organlari byudjetlarini tenglashtirish va moliyaviy faoliyatini nazorat qilish to' g' risida»giquonun.
4. Moliyaviy dastaklar to' g' risidagi qonun.
5. Soliqlar to' g' rsidagi qonun.
6. Moliya vazirligining normativ aktlari.
7. G' aznachilikning normativ aktlari.

Rossiya Federatsiyasining byudjet tizimini barcha bosqichlarida byudjet ijrosi “yagona kassa” tamoyili asosida amalga oshiriladi. “Yagona kassa” tamoyili Rossiya Federatsiyasi qonuniy hujjatlariga muvofiq, byudjet daromadlarini barcha tushumini, byudjet taqchilligini manbalarini jalb etish va moliyalashtirishni va byudjetning yagona hisobraqamidan barcha xarajatlarni amalga oshirishni ko’zda tutadi. Federal byudjetning daromadlar qismi ijrosi haqida gapiradigan bo’lsak, soliq organlarining Moliya vazirligi bo’ysunuvidan chiqqanligi Federal byudjet ijrosi jarayonlarini tezkor boshqarish uchun zarur bo’lgan axborotlarni uzatishni bo’linishiga olib keldi. Davlat soliq xizmati kanallari bo’yicha barcha soliq to’lovlarning amalga oshirilganligi to’g’risida ma’lumotlar mavjud. Lekin shunga qaramasdan, Rossiya Moliya vazirligi o’zining hududiy organlaridan haqiqatda federal byudjetning daromadlar qismiga tushgan miqdori to’g’risida to’liq axborot olish imkoniyatidan chetlatilgan, bu esa byudjet amaliyotidagi moliyalashtirishning kechikishiga olib keldi.

Davlatning moliyaviy resurslarini boshqarish, himoyalash, nazorat qilish va hisobga olishni ta’minlash katta muammo bo’lib qoldi. Davlatning moliya tizimi boshkaruvi bo’yicha davlat talablarini amalda bajarilishini ta’minlovchi ijro boshqaruvi organini tuzish zaruriyati yuzaga keldi. Ma’lumki, Rossiyada 1928 yildan 1917 yilgacha «barcha kirim va chiqimlarni hisoblash» mavjud bo’lgan, bu vazifalarni Davlatning G’aznachilik Departamenti amalga oshirgan. Rossiyada byudjet ijrosini tahlili

shuni ko'rsatadiki, 90-yillar boshida Rossiyada davlat g'aznasini to'ldirish bilan bog'liq va uning resurslarini xarajat qilishning nazoratini ta'minlashga zuriyat tug'ildi. Rossiya Federatsiyasi 90-yillarning boshidan yakka tizimli moliya boshqaruvidan voz kechdi, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moliyaviy manfaatni himoya qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Shunday qilib, federal byudjet ijrosini amalga oshiradigan tezlikda yangi moliya organini tuzish masalasini hal qilish kerak edi. Rossiya Federatsiyasida 1992 yili federal miqyosda hududiy g'aznachilik tizimi vujudga keldi. Federal G'aznachilik organi Rossiya Federatsiyasi Moliya Vazirligi tarkibiga kiradi, markazlashgan tizim hisoblanadi va u hududiy tamoyillarga asoslanadi. Bunga huquqiy asos bo'lib Rossiya Federatsiyasi Prezidentining Farmoni, «G'aznachilik to'g'risida»gi Nizom xizmat qildi. Mamlakatda davlat byudjet siyosatini olib borish maqsadida Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1992 yil 8 dekabrda 1556-sonli Farmoni federal byudjet daromadlari va xarajatlari samarali boshqarish, davlat dasturlarini moliyalashtirishda tezkorlikni oshirish, tushumlar ustidan nazoratni kuchaytirish, davlat mablag'larini maqsadli va iqtisod qilib ishlatish maqsadida Rossiya Federatsiyasi Moliya Vazirligiga bo'ysinuvchi Federal G'aznachilik organlarining markazlashtirilgan tizimi shakllantirilgan.

Italiyada davlat moliyasini boshqaruvchi asosiy organlarga quyidagilar kiradi:

- G'aznachilik – uning zimmasiga davlat xarajatlari ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish yuklatilgan;

- Moliya vazirligi – daromadlarni shakllantiradi;
- Byudjet va rejalashtirish vazirligi – moliyaviy resurslarni boshqaradi va davlat byudjetini tuzadi;
- Ichki ishlar vazirligi – mahalliy moliyani boshqaradi.

AQSHda Federal G'aznachilik to'g'ridan-to'g'ri Prezidentga bo'ysunadi va keng doiradagi iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. Byudjet jarayonida byudjetni tayyorlashga javob beradigan Ma'muriy-byudjet boshqarmasi, auditga va nazoratga, hisob-kitob ishlariga javob beradigan Bosh byudjet-nazorat boshqarmasi kabi muassasalar qatnashadi, Soliq boshqarmasi va Bojxona boshqarmasi g'aznachilikning bir qismi hisoblanadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari da davlat moliyasi Moliya vazirligi (Federal G'aznachilik) tomonidan boshqariladi, bu vazirlik to'g'ridan-to'g'ri AQSh prezidentiga qaraydi va uning oldida hisobot beradi.. Uning funksiyalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- davlatning moliyaviy va soliq siyosatini ishlab chiqish;
- pul belgilarining emissiyasi va tanga chiqarilishi;
- davlat qarzini boshqarish;
- o'zining Nyu-York Federal rezerv bankidagi yagona hisob raqamiga kelib tushadigan va undan ketadigan pul mablag'larini va hukumat hisob raqamlarini nazorat qilish;
- ichki daromadlarni yig'ish.
- qisqa muddatli (4-6 oyga mo'ljallangan) rejani tuzadi va uni har oy yangilashga javob beradi;
- davlat qimmatli qog'ozlarni ishlab chiqaradi va ularni auksionlarda joylashtirishni ta'minlaydi;
- g'aznachilik qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori qoidalarini ishlab chiqaradi;
- buxgalteriya hisobiga javob berib, tashkilotlar uchun instruktsiyalarni ishlab chiqadi;

- davlat tashkilotlarining oylik va yillik hisobotlarni qabul qiladi.

Bundan tashqari AQShda moliyaning boshqarilishida prezident qoshidagi Ma'muriy-byudjet boshqarmasi shug'ullanadi. Bu tashkilot federal byudjetning xarajatlar qismini tuzadi, byudjet boshqarilishining tezkor nazoratini amalga oshiradi va asosiy bajaruvchi organ hisoblanadi. G'aznachilik barcha tushumlarni va to'lovlarni Nyu-Yorkdagi Federal rezerv bankida o'zining bosh hisobraqami orqali nazorat qiladi, g'aznachilik barcha soliqlarni va boj to'lovlarni yig'adi, markazlashgan holda barcha yig'implarni yig'ilishini va ba'zi muassasalarga xizmatlar ko'rsatishni ta'minlaydi. Tushumlarni yig'ishda bank tizimidan foydalaniladi. Tarmok departamentlari mablag'larni to'g'ri va samarali ishlatilishi bo'yicha nazoratni amalga oshiradi. Barcha xarajatlar tasdiklangan byudjet parametrlari doirasida byudjetdan mablag' oluvchilarning so'rovi asosida g'aznachilik tomonidan to'lanadi, bunda cheklardan va elektron pul o'tkazish vositalaridan foylaniladi.

Byudjetdan ajratilgan mablag'lar tarkibi ham g'aznachilik tomonidan, ham Ma'muriy-byudjet boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi. Shuningdek, AQSHda g'aznachilik boshka mamlakatlardagi kabi davlatning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni va hisobini nazorat qiladi hamda ularning to'lov muddatlarini belgilaydi va auktsionlarda ularni joylashtirishni nazorat qiladi. Shu bilan birga g'aznachilik davlatning qimmatli qog'ozlari bilamchi bozori qoidalarini belgilaydi, g'aznachilik qisqa muddatli kassa talablarini qoplash uchun doimiy haftalik qimmatli qog'ozlarni chiqaradi. G'aznachilik buxgalteriya hisob-kitobiga javob beradi, oylik va yillik moliya hisobotlarni tayyorlash uchun ma'lumotlar yig'adi va muassasalar uchun me'yoriy hujjatlar tayyorlaydi. Ichki nazorat va audit funksiyalarini tarmok departamentlaridagi bosh inspektorlar bajaradilar. Federal hukumat federal mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan mahalliy dasturlar bo'yicha tekshiruvni amalga oshiradi. AQSHda g'aznachilik va Byudjet departamentlari faoliyati aniq muvofiqlashtirilgan. G'aznachilik byudjet tushumlari to'g'risida hujjatlarni tayyorlaydi va makroiqtisodiy asoslarni ishlab chiqishda

qatnashadi. Ma'muriy-byudjet boshqarmasi Prezident Kongressiga taqdim qilinadigan xarajatlar smetasini tayyorlaydi, shuningdek, turli darajadagi byudjetlarni umumlashtiradi. G'aznachilik pul oqimlari boshkaruvini va qarz majburiyatlari hisob-kitobini amalga oshiradi. G'aznachilik va tarmoq departamentlari o'rtasida dialog tartibida axborotlar almashuvi amalga oshiriladi. G'aznachilik tizimida yagona federal tizimdagi hisobotlarni tayyorlash uchun ba'zi bir funksiyalar birlashtiriladi. Tarmok departamentlari o'zlarining xususiy axborot tizimiga ega, shuningdek, g'aznachilikka dialog tartibida axborotlar beradi va kabul qiladi.

Hisobotlarni turlariga qarab ularni tayyorlash vaqti turlichadir, naqd pul oqimlari to'g'risidagi umumiy axborot har kuni tayyorlanadi. Byudjetning bajarilishini esa ichki daromadlarni yig'uvchi Moliya vazirligi, bojxona qo'mitasi va alkogol ichimliklar, ta'maki mahsulotlar va qurol-yaroq bo'yicha daromadlarni boshqaruvchi departamenti shug'ullanadi.

AQSh paydo bo'lganidan beri o'z davlat qarz majburiyatlariga ega. Qarzlari Amerika Revalutsion urishi davridan beri, 1791 yil 1 yanvardan beri har yili tahlil qilina boshlangan. Keyingi 45 yil davomida mamlakat qarzlari qisqa vaqtda ushbu farqlar (ya'ni daromad va xarajatlar o'rtasidagi) nolga teng bo'lgan. Lekin 1835 yil 8 yanvardan Endryu Jekson prezidentligi davrida shiddatli ravishda million martaga oshib ketda. Qarzlarning tez sur'tlarda o'sishi ilk davri fuqarolar urishi davridan boshlangan. Urishdan so'ng mamlakatning qarz majburiyati 65 mln AQSh dollarini tashkil qilgan. 1860 yilda esa 1 mlrd AQSh dollarini, 1863 yilda esa AQSh dollarini tashkil qilgan. Urishdan so'ng mamlakatning qarz majburiyati so'nggi 100 yillikning oxirlariga qadar asta-sekinlik bilan o'sib bordi. 1910 yillar oxiri 1920 yillar boshlarida mamlakatning qarz majburiyatlari taxminan 22 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu salbiy ko'rsatkich mamlakatning 1-jahon urishida qatnashganligi tufayli yuzaga kelgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki 1980-1990 yillar mobaynida mamlakatning qarz majburiyati 3 barobarga oshib ketdi. 1998-2002

yillar mobaynida mamlakatning qarz majburiyati dollarning nominali hisobiga bir muncha qisqardi. Ammo mamlakatning umumiy miqdori qisqarmadi. 2005 yilning oxirlariga kelib yalpi mamlakatning qarz majburiyati 7,8 trln AQSh dollarini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 1980 yilga nisbatan 8,7 barobarga o'sganlagini ko'rsatadi.

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 1910 yilda AQSh davlat qarzlari miqdori 2.6 mlrd AQSh dollari, 2010 yil 10008,9 mlrd AQSh dollari, 2011 yil esa 11699,8 mlrd AQSh dollari miqdorida, 2012 yil esa 12383,5 mlrd AQSh dollari miqdorida davlat qarzlari mavjud bo'lgan.

Bugungi kunda Federal G'aznachilik har yili auksionda 200dan ortiq davlat qarz majburiyatlari shartnomarini belgilaydi. G'aznachilikka Kongress tomonidan davlat korxonalarini moliyalashtirish huquqlari berilgan, moliyalashtirish summasi belgilangan tartibdan oshmagan bo'lishi kerak. Moliyalashtirishning eng yuqori darajalari yangi qonunlar qabul qilingan holatlarda bo'lgan.

Ko'pgina qarzдорlik shakllari veksellar va obligatsiyalar bo'lganligi sababli AQSh g'aznachiligi ularni emissiya qilish bilan birgalikda davlat qarz majburiyatlari boshqaruvi egalari haqida ham ma'lumotlariga ega bo'ladi. Ushbu qimmatli qog'ozlar joylashuvi ustidan qat'iy nazorat amalga oshiriladi, chunki joylashtirilgan mablag'larning ko'pgina qismi Federal Rezerv G'aznachiligi hisobiga to'g'ri kelari bu AQSh pul-kredit siyosati barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki davlat qarz majburiyatlarining qariyb yarmi "Federal Rezerv va Intragovernmental Holdings"ga tegishli. Davlat byudjetining g'azna ijrosi qonun xujjatlarida belgilab qo'yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag'alpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

AQSh rasmiy oltin valyuta zahirasi (2016 yil mart ma'lumotlariga ko'ra 261,5 mln troy untsiyasi qiymatiga teng deb baholangan) bu taxminan 1 troy untsiyasi 42 AQSh dollari deb baholanganda 11 mlrd AQSh dollariga teng bo'ladi. AQSh

valyuta zaxirasi qiymati 63 mlrd va strategik neft zaxirasi qiymati 67 mlrd AQSh dollari (neftning bozor bahosi 104/ barrel 15/ barrel AQSh dollari chegirma qaymoqli tozalanmagan neft bo'lsa agar) 2016 yil fevral ma'lumotlariga ko'ra AQSh hukumatining milliy qarzi har bir fuqaroga taxminan 30400 AQSh dollarini, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan insonlar hisobida 60100 AQSh dollarini tashkil qiladi. 2015 yilning o'zidagina davlat qarz majburiyatlarining foizlari uchungina 318 mlrd AQSh dollari miqdorida to'lov amalga oshirilgan bu esa 2015 yil 1,95 trln soliq tushumlarining 17,9 %ni tashkil qiladi.

Xalqaro aloqalar Vazirligi va xalqaro qarzдорlik veksel, aktsiya-obligatsiya shartnomalari nazoratini amalga oshiradi. Quyida 2012 yil iyun oyigacha bo'lgan malumotlar ko'rsatilgan:

3-jadval

2004-2015 yillar AQSh hukumatining qarz majburiyatlari, moliya yili uchun (10/01 dan boshlab hisoblanganda) byudjet difetsiti va davlat qarzlari miqdori¹⁷

Yillar	Qiymat	YaIM ga nisbatan, %da
2004	\$144,5 mlrd	1,4%
2005	\$409,5 mlrd	3,9%
2006	\$589,0 mlrd	5,5%
2007	\$605,0 mlrd	5,3%
2008	\$523,0 mlrd	4,3%
2009	\$536,5 mlrd	4,1%
2010	\$459,5 mlrd	3,4%
2011	\$1017,0 mlrd	7,4 %
2012	\$1123,0 mlrd	8,2 %
2013	\$1217,0 mlrd	9,4 %

¹⁷ <http://www.ustreas.gov>. internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.


2014	\$1502,0 mlrd	10,7 %
2015	\$1705,2 mlrd	12,5 %

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSh byudjet defitsiti va davlat qarz majburiyatlari o'rtasida yaqqol farq mavjud. Asosiy sabab davlat xarajatlari miqdori rejalashtirilgan ham bir necha barovarga oshib ketishi, masalan Iroq va Afg'oniston urushlari misolida ko'rishimiz mumkin. 2006-2014 yillar mobaynida ushbu qonli urushlar sababli davlat qarz majburiyatlari miqdori yiliga o'rtacha 841 mlrd AQSh dollari, 2015 yil moliya yili davomida esa 1705,2 trln AQSh dollarini tashkil qilgan.

Davlat moliyasini boshqarishning isloh qilishni yanada chuqurlashtirish, budjet mablag'laridan samarali foydalanishning yangi shakl va uslublarini qo'llash g'aznachilik tizimini joriy qilishni ko'zda tutadi.

G'aznachilik tizimi budjet mablag'larining moliyaviy oqimini boshqarish, budjet resurslarining kam miqdordagi qoldiqlari bilan budjet xarajatlarini joriy ijrosini ta'minlash imkonini beradi, bunda davlat budjeti daromadlari va xarajatlarini tezkor va yakuniy balanslashtirishga erishiladi.

Quyidagi rasmda biz, Buyuk Britaniya 2015-2016 yil loyihasida ko'zda tutilgan daromad va xarajatlar to'g'risida ma'lumot keltirilgan.



5-rasm. Buyuk Britaniyaning davlat byudjeti daromadlari ko'rsatkichlari¹⁸
(2016 yil 31 dekabr holatiga)

G'aznachilik byudjetni tayyorlash va ajratilgan mablag'lar guruhiga qarab xarajatlarni ro'yxatdan o'tkazish bilan shug'ullanadi. Xarajatlar qismidan tashqari daromad bo'yicha ma'lumotlar ishlab chiqiladi va ro'yxatdan o'tkaziladi. G'aznachilik jamlanma fondan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun har oylik moliyaviy reja ishlab chiqadi.

Davlat byudjetidan farqli o'laroq qisqa muddatli rejalashtirish tezkor ehtiyojlar qisqa muddatda moliyalashtirish va bu moliyalashtirishning eng samarali yo'li sifatida tan olingan. Fransiya, Braziliya va Avstraliyada ham G'aznachilik bir qator vakolat va imtiyozlarga ega. Kanada, Germaniya va Italiyada esa G'aznachilik funksiyalari keng tashkil etilmagan.

¹⁸ <http://www.hm-treasury.gov.uk> internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

2.2. Xorijiy mamlakatlar moliya tizimida yagona g'azna hisob raqamini yuritilishining amaldagi holati tahlili

Barchamizga ma'lumki, mamlakat Milliy g'aznachilik tizimining asosiy vazifalaridan biri bu davlat moliyaviy resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat moliyasi tarkibiga kiruvchi "g'aznachilik" deb ataluvchi organ o'ziga yuklatilgan funksiyasidan kelib chiqib turli majburiyatlarni bajaradi. G'aznachilikning tuzilishi va vazifalari mamlakatning tarixiy va madaniy urf odatlaridan, shuningdek mamlakatning iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

G'aznachilik ayrim mamlakatlarda passiv ahamiyatga ega, qachonki g'aznachilik faqat tasdiqlangan byudjet mablag'larini ajratish bilan shug'ullansa, g'aznachilik majburiyatlar limitini belgilash va xarajatlar to'lovini amalga oshirish huquqi ega bo'lsa yoki oldindan belgilangan mezonlar asnosida alohida xarajatlarni ishlab chiqishga ruxsat bersa, unda u aktiv ahamiyatga egadir. G'aznachilik davlat qarzlarini boshqarishni turli darajalarida ishtirok etadi. Va nihoyat, g'aznachilik hisob funksiyasini bajarilishida ham javob berishi mumkin. Davlat moliyasini boshqarishning va g'aznachilik tashkiliy tuzilishining yagona modeli mavjud emas. Uning bo'limlari va boshqarmalari va uning aniq funksiyalari turli mamlakatlarda turlichadir. Shuningdek g'aznachilikning funksiyasi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. G'aznachilikning tashkiliy tuzilishi AQShda Moliya vazirligining Departamenti ko'rinishida, Frantsiyada G'aznachilik Moliya vazirligining Boshqarmasi ko'rinishida, Angliyada mustaqil mahkama ko'rinishida, Avstraliyada esa vazirlik darajasidagi departament ko'rinishiga ega.

Yuqorida keltirilgan qariyb barcha mamlakatlarda g'aznachilik amalga oshirilgan xarajatlarning nazoratini markaziy bankda ochilgan g'aznachilikning

yagona hisobraqami orqali, ya'ni g'aznachilikning bosh kitobi tizimi orqali nazoratni amalga oshiradi.

Yaponiyada Yaponiya Banki hukumat uchun paralel ravishda byudjet-soliq sohasi barcha hisob-kitoblarini yuritadi, shuningdek Moliya vazirligi umumiy buxgalteriya hisobi va hisobotini boshqarish va tartibga solish bo'yicha javobgar bo'ladi, bu borada Yaponiya dunyoda yagona davlat hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan mamlakatlar G'aznachiligining institutsional asoslarini o'rganishdan oldin, quyidagi masalalarni oldimizga qo'yishimiz kerak, ya'ni qanday struktura byudjet masalalariga javob beradi va byudjet ijrosini kim nazorat qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar g'aznachilik tizimini tashkil etishning alohida xususiyatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, masalan AQShda G'aznachilik Departament ko'rinishida Moliya vazirligining tarkibiga kiradi, to'g'ridan-to'g'ri prezidentga bo'ysinadi va keng ko'lamda iqtisodiy va moliyaviy funksiyalarni bajaradi. Hisob va audit funksiyalarining bajarilishiga ma'muriy-byudjet boshqarmasi va bosh byudjet-nazorat boshqarmalari javob beradi. Soliq va bojxona boshqarmalari g'aznachilikning bir bo'lagi hisoblanadi.

Angliyada g'aznachilik umumiy siyosat va qarzlarni boshqaruvini amalga oshiradi, bosh g'aznachi mahkamasi hisobraqamlarni ro'yxatga olish va ularni qayta ishlash funksiyasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan mamlakatlarda davlat to'lovlari quyidagicha amalga oshiriladi.

4-jadval

Rivojlangan mamlakatlar davlat to'lovlarini amalga oshirish uslubiyoti¹⁹

Mamlakatlar	Tavsiflar
--------------------	------------------

¹⁹ www.nauka-shop.com internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

Avstraliya	Moliya vazirligi to'lovlarni cheklar chiqarish orqali yoki mablag'larni g'aznachilikning yagona hisobraqami – Avstraliya uyushmasining davlat hisobraqamidan chiqarish orqali amalga oshiradi.
Frantsiya	Moliya vazirligining davlat hisob xizmati hududiy kassa boshqarmalariga to'lovlarni chek chiqarish orqali yoki pul mablag'larini G'YaHdan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
Germaniya	Xuddi Frantsiya amaliyotiga o'xshaydi, lekin faqat mablag'lar o'tkazish elektron shakl amalga oshiriladi.
Yaponiya	Tarmoq vazirliklarining nazoratchilari to'lovlarni cheklar orqali yoki Yaponiya bankida ochilgan g'aznachilikning yagona hisobraqamidan ko'chirish orqali amalga oshiradi.
Angliya	Tarmoq vazirliklari to'lovlarni cheklar orqali yoki g'aznachilikning yagona hisobraqamidan ko'chirish orqali (Angliya bankidagi bosh g'azna hisobraqami orqali) amalga oshiradi .
AQSh	AQSh G'aznachiligi to'lovlarni cheklar chiqarish orqali yoki mablag'larni g'aznachilikning yagona hisobraqami – Nyu-York federal rezerv bankining g'azna hisobraqami orqali amalga oshiradi.

4-jadvalda ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki keltirilgan barcha mamlakatlarda to'lovlar nazorati g'aznachilikning yagona hisobraqami orqali amalga oshiriladi. Bu hisobraqamning aniq ko'rinishi turli mamlakatlarda turlichadir.

Yuqorida keltirilgan mamlakatlar g'aznachilikning yagona hisobraqami tuzilishi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Rivojlangan mamlaktalar yagona g'azna hisobraqam tuzilishi²⁰

Mamlakatlar	G'YaH tuzilishi
Avstraliya	Yagona hisobraqam
Frantsiya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Germaniya	Yagona hisobraqam, hududiy hisobraqam
Yaponiya	Yagona hisobraqam, u bir vaqtning o'zida davlat boshqaruvi organlari bilan bog'liq bo'lgan moliya muassasalariga xizmat ko'rsatadi
Angliya	Yagona hisobraqam
AQSh	Yagona hisobraqam, tijorat banklardagi g'aznachilik, soliq va ssuda hisobraqamlari

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Frantsiya va Germaniyada yagona g'azna hisobraqami (YAG'H) hududiy kassa boshqarmalari hisobraqamini o'z ichiga oladi, Yaponiya YAG'H Yaponiya bankining hisobraqamini qamrab oladi, AQShda g'aznachilik tijorat banklarda g'aznachilik, soliq va ssuda hisobraqamlardagi qoldiq mablag'larni saqlovchisi hisoblanadi.

Angliyada tarmoq vazirliklari bosh g'aznachilikning hisobraqamidagi mablag'dan to'la hajmda foydalana oladi, ammo jamlanma daromad fondidan bu hisobraqamlarga mablag'larni ko'chirish, jamlana har kunlik balans va ularning hisobi g'aznachilik nazorati ostida bo'ladi.

Quyidagi 6-jadvalda keltirilgan mamlakatlarda davlat hisobini yuritish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlanishini ko'rishimiz mumkin.

6-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda davlat hisobini yuritishda majburiyatlar taqsimoti²¹

²⁰ www.nauka-shop.com internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

²¹ <http://www.imf.org>. internet sayti ma'lumotlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

Mamlakatlar	Taviflar
Avstraliya	Moliya vazirligi va byudjet muassasalari
Frantsiya	Moliya vazirligi va byudjet muassasalari
Germaniya	Moliya vazirligi
Yaponiya	Moliya vazirligi, Yaponiya Banki va byudjet muassasalari
Angliya	G'aznachilik, byudjet muassasalari
AQSh	G'aznachilik, byudjet muassasalari

Yuqorida keltirilgan 6-jadval ma'lumotlaridan AQSh va Angliyada soliq-byudjet sohasidagi asosiy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri g'aznachilikga yuklatilganligini ko'rishimiz mumkin. Germaniyadan tashqari boshqa barcha mamlakatlarda byudjet muassasalari o'zining hisobini yuritadi, ammo ularning tizimi to'liq markaziy hisob tizimiga birlashtirilgan, bu tizim Moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. Germaniyada Moliya vazirligi barcha byudjet muassasalariga hisob yuritish borasida to'liq hajmda xizmat ko'rsatadi, bunda to'lov-rani amalga oshirishning barcha bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi.

AQShda g'aznachilik boshqa ijroya hokimiyat organlari bilan birgalikda davlatning iqtisodiy va byudjet siyosatiga javob beradi, bularga byudjetni boshqarish masalalari bo'yicha kotibiyat (ular asosan prezidentga byudjet takliflarini ishlab chiqadi), personalni boshqarish masalalari bo'yicha kotibiyat (shtatlarni komplektatsiyasi qilish bilan shug'ullanadi) va iqtisodiy maslahatchilar kengashi (iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda katta hissa qo'shadi). Shunga asosan kongress belgilangan byudjet tushumlari va xarajatlari hajmi bo'yicha qaror qabul qilish, uning qo'mitalari tushumlar va assignovaniyalar hajmi bo'yicha takliflar berish huquqiga ega.

Britaniya g'aznachiligi qarayb butun iqtisodiy siyosat va byudjet boshqaruvi nazoratini amalga oshiradi, faqatgina istesno sifatida taftish ishlarini Milliy taftish boshqarmasi amalga oshiradi. Milliy taftish boshqarmasi to'g'ridan-to'g'ri parlamentga bo'ysinadi.

Frantsiyada g'aznachilik funksiyasi G'aznachilik, Moliya vazirligi, davlat hisobining bosh direktsiyasi va byudjet vazirligi o'rtasida taqsimlangan. Moliya vazirligi bir nechta boshqarmalardan tashkil topgan, ulardan biri g'aznachilik boshqarmasidir. Moliyaviy resurslar ustidan bunday nazorat tizimi markazlashtirishning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, shuningdek Moliya vazirligi mablag' oluvchi barcha vazirliklarda va munitsipalitetlarda o'zining inspektorlariga ega, shu bilan birga barcha davlat xarajatlari bo'yicha taftishi o'tkazish javobgarligi yuklatilgan.

Germaniyada hukumatning federal strukturasini namoyon qiluvchi markazlashtirilgan tizimga ega. Germaniya Moliya vazirligi byudjet tushumlari va xarajatlari bo'yicha javobgarlikni olgan, shuningdek federal hukumat xarajatlari dasturlarini nazoratini olib boradi. Shu bilan birga Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi bilan birga iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish javobgarligini ham o'z zimmasiga olgan.

Yaponiyada g'aznachilik funksiyasi Moliya vazirligining g'aznachilik bo'limi, boshqaruv bo'limi, moliya boshqarmasining moliya bo'limi va byudjet bo'limi, byudjet ijrosi bo'limi, byudjet boshqarmasining yuridik bo'limi o'rtasida taqsimlangan.

Italiyada uchta alohida vazirlik mavjud, ular iqtisodiy va moliyaviy siyosatga javob beradilar: Moliya vazirligi soliq siyosatiga va uni boshqarishga javob beradi; Moliyaviy rejalashtirish va byudjet vazirligi, byudjet ijrosi vazirligi va moliya boshqarmasi bilan birgalikda makroiqtisodiy rejalashtirish va byudjetni tayyorlash masalalari bilan shug'ullanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan mamlakatlar g'aznachiligining asosiy funksiyalari quyidagicha taqsimlangan:

- pul mablag'larini boshqarish, bunda bank tizimidagi hisobraqamlar bo'yicha tushumlar va to'lovlar nazoratini;
- qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirish;
- Davlat qarzlar va qarz kafolatlarini boshqarish;

- Moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni boshqarish, bunda davlat korxonalari aktsiyalar paketini;
- Byudjet daromad bo'yicha ijrosini (tushlarni yig'ish);
- Byudjet xarajat bo'yicha ijrosini;
- Byudjet nazoratini;
- Byudjetdan tashqari fondlar bilan bo'ladigan operatsiyalarni;
- Buxgalteriya hisobini;
- Ichki nazorat va auditni;
- Hududiy va mahalliy davlat boshqaruvi organlari moliyaviy nazoratini;
- Davlat moliyaviy axborot tizimini ishlashini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Pul mablag'larini boshqarish funksiyasini bajarishda AQSh g'aznachiligi bosh g'azna hisobraqamiga barcha tushumlar va to'lovlarni nazoratini amalga oshiradi, shuningdek hukumatning bank hisobraqamlarini nazorat qiladi.

Angliyada bosh g'aznachi mahkamasi to'lov topshiriqnomalarini va jamalanma fondan to'lovlarni qayta ishlaydi.

Frantsiyada g'aznachilik marakaziy bankdagi davlat hisobraqami bo'yicha tushumlar va to'lovlarni nazorat qiladi. Davlat hisobining bosh direktsiyasi alohida to'lovlar, yig'imlar bo'yicha tushumlar va bojxona to'lovlariga javobgar hisoblanadi.

Avstraliyada g'aznachilik davlat qarzi bilan bog'liq bo'lgan yig'imlar bo'yicha tushumlarni va to'lovlarni nazorat qiladi. Byudjet ijrosi bilan bog'liq bo'lgan to'lovlari nazoratini Moliya vazirligining Moliya departamenti amalga oshiradi.

Yaponiyada Yaponiya bankidagi davlat hisobraqamiga tushumlar va to'lovlarni Moliya vazirligi g'aznachilik bo'limining moliya boshqarmasi va byudjet ijrosining byudjet boshqarmasi nazoratni amalga oshiradi.

Moliyaviy rejalashtirish - asosan g'aznachilik hisobraqamiga keladigan tushumlarni va davlat xarajatlarini to'lash uchun resurslarga bo'lgan talab prognozini amalga oshiradi.

Shuningdek AQShda moliyaviy reja 4-6 oyga har kunlik taqsimot va har oylik yangilab turish sharti bilan tuziladi, Frantsiya va Avstraliyada oraliq vaqt oylik va kvartallik taqsimot bilan tuziladi. Angliyada moliyaviy reja oylik asosida ishlab chiqadi, Yaponiyada sirpanuvchi moliyaviy reja kunlik taqsimoti bilan ishlab chiqiladi. Moliyaviy xarajatlar rejasi AQSh, Angliya va Frantsiyada g'aznachilik tomonidan ishlab chiqiladi, Yaponiyada – Moliya vazirligi g'aznachilik bo'limi moliya boshqarmasi, Avstraliyada – moliya departamenti amalga oshiradi.

Barcha o'rganilgan davlatlarda moliyaviy aktivlarni boshqarish siyosati tarmoq departamentlari va vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Barcha o'rganilgan davlatlar byudjet ijrosi quyidagilarni nazarda tutadi:

- Soliqlar va boshqa tushumlarni yig'ishni;
- Bank bilan o'zaro aloqasini (tushumlarni bank orqali yig'ishda);
- Daromad tushumlari nazoratini;
- Turli darajadagi davlat boshqaruv organlari o'rtasida tushumlarni taqsimlashni o'z ichiga oladi.

AQSh va Avstraliyada davlat byudjeti daromadi ijrosida g'aznachilik faol rol o'ynaydi. AQShda g'aznachilik o'zning soliq va bojxona boshqarmalari orqali bank tizimi bilan o'zaro aloqada bo'lib, barcha soliq va bojxona bojlarini yig'ishga javob beradi.

2-bob bo'yicha xulosa

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, g'aznachilikning xorij tajribasiga asosan uning amaliyoti hamda tartibga solishda normativ huquiy asosini, moliya va byudjetni boshqarish to'g'risidagi qonuni, byudjet tashkilotining moliya rejasini tuzish va hisobini yuritish to'g'risidagi nizomi, hisob raqamlar xizmatining qoidalari, byudjet xarajatlarining iqtisodiy tasnifi, byudjet daromadlarining

tasnifi, buxgalteriya hisobini yuritish va statistik hisobotlarni tuzish to'g'risidagi me'yoriy hujjati tayyorlanadi.

G'aznachilikning xorij tajribasiga asosan, mamlakat byudjeti ikki asosiy bo'g'inga bo'linadi: Davlat byudjeti va o'zi-o'zini boshqarish organlari byudjeti.

Davlat byudjeti asosiy byudjet va maxsus byudjetdan, o'zi-o'zini boshqarish organlari byudjeti ham asosiy byudjet va maxsus byudjetdan iborat. Byudjet jarayonlarini tartibga solishning asosiy normativ aktlari: har yili tasdiqlanadigan byudjet to'g'risidagi qonun, o'zi-o'zini boshqarish organlari byudjeti to'g'risidagi qonun, o'zi-o'zini boshqarish organlari byudjetlarini tenglashtirish va moliyaviy faoliyatini nazorat qilish to'g'risida»gi qonun, moliyaviy dastaklar to'g'risidagi qonun, soliqlar to'g'risidagi qonun, moliya vazirligining normativ aktlari, g'aznachilikning normativ aktlaridan iborat bo'ladi.

Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi joriy etilishi bilan moliyaviy nazoratning dastlabki va joriy shakllari samaradorligi keskin orttirilishi ta'minlanadi.

G'aznachilik tizimida byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan shartnomalarni sifatli tuzilishini nazorat qilish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadsiz, asoslanmagan xarajatlariga yo'l qo'yish bir muncha cheklanadi, byudjet mablag'larini belgilangan maqsadlarga ishlatilishida dastlabki va joriy moliyaviy nazorat takomillashishiga erishiladi.

3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI G'AZNACHILIK TIZIMINI ISLOH QILISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

3.1. O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish masalalari

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish masalalarini ko'rib chiqar ekanmiz avvalambor, O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining G'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni 2004 yil 26 avgust oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonuniga e'tibor qaratishimiz lozim deb o'ylaymiz. Unga muvofiq, quyidagilar g'aznachilikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat byudjetinining kassa ijrosi, jumladan tushadigan daromadlarni turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash, byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetalari ijrosi va Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot tuzish;

Davlat byudjeti mablag'larini yagona g'aznachilik hisob raqami, shuningdek tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi kassa uzilishlarining oldini olishni ta'minlaydigan hududiy g'aznachilik hisob raqamlarini joriy etish orqali boshqarish;

Byudjet tashkilotlarining tovarlar etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) bilan shartnomalarini, shuningdek Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish bo'yicha buyurtmachilarning shartnomalari (keyingi o'rinlarda byudjet tashkilotlari va buyurtmachilar shartnomalari deb ataladi) xarajatlar smetasida ko'rsatilgan summalar va maqsadlarga qat'iy muvofiq ravishda tuzilishi ustidan qattiq nazorat o'rnatish asosida mazkur shartnomalarni majburiy ro'yxatdan o'tkazish tartibini joriy etish orqali byudjet tashkilotlarining maqsadga nomuvofiq, asossiz xarajatlarning oldini olish;

Byudjet tashkilotlarini, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalarini

moliyalashtirishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanishni maqbullashtirish yuzasidan monitoring olib borish, bunda ular tomonidan tuzilayotgan shartnomalarning sifati ta'minlanishini, ularning maqsadga muvofiqligi va narx-navo echimini nazarda tutish hamda qoidaga ko'ra, vositachilik xizmatlaridan voz kechish;

Xarajatlar smetasi va ro'yxatga olingan shartnomalarda nazarda tutilgan qat'iy summalar doirasida tovarlar etkazib beruvchilar (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar)ning bevosita hisob raqamlariga byudjetdan mablag' oluvchilar nomidan va ularning topshirig'i bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish orqali to'lov intizomiga so'zsiz rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;


Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalterlik hisobi va hisobotini yuritish, Davlat byudjeti ijrosi haqida axborotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini ijro etish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikaning barcha hududlarida g'aznachilikning ikkita elementi joriy qilingan:

- shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish;
- to'lovlarning amalga oshirilishini nazoratini ta'minlash.


O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Davlat byudjeti g'azna ijrosining yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007yil 28 fevralda PP-594 sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning maqsadi: Davlat byudjetining g'azna ijrosini tatbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish, g'aznachilikning vazifa va funksiyalarini amalda to'g'ri qo'llanilishini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tarkibiy tuzilmasini belgilashdan iboratdir. Ushbu qarorning hududlarda ijrosini amaldagi holatining tahlili

quyidagicha ya'ni, 2007 yil 1 oktyabr holatida g'aznachilik tizimining elementlaridan bo'lmish shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar to'lovini nazoratini amalga oshirishi 600 dan ziyod Toshkent shahrida joylashgan respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarini o'z ichiga qamrab olgan, mahalliy byudjetlarda joylashgan respulika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari 20 mingdan ziyod.



6-rasm. Byudjetni ijro qilish jarayonidagi g'aznachilik tizimida nazorat qilish ko'rsatkichlarni²²

²² Xaydarov M. G'aznachilik tizimining ahamiyati. Soliq soliq va buxgalteriya hisobi. 2007 yil. 1-soni.



7- rasm. Davlat byudjetini g'aznachilik tizimida ijro etishning ijobiy tomonlari²³

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimi faoliyatidagi asosiy muammolarni ko'rib o'tadigan bo'lsak:

- G'aznachilikning yagona hisob raqamini takomillashtirish;
- Kompyuter tizimlarini modernizatsiyalash;

²³ Qosimova G. A. G'aznachilik tizimini joriy etishda xorij tajribasi // Bozor, pul va kredit. 2011. №3. 25-29b.

- YaG'H asosida boshqaruv ishlarini amalga oshirish ta'minlash shartlarini muvofiqlashtirish;
- Xorijiy mamlakatlarda YaG'Hni joriy qilish tajribasini o'rgangan holda uni samarali baholash;
- YaG'Hning ahamiyatlilik darajasini (hisob sohasida, pul oqimlarini boshqarish sohasida) oshirib borish.
- Naqd pulli muomalani boshqarish:
- Qat'iy belgilangan xarajatlar asosida qoldiq qiymatlarini boshqarish;
- Qoldiq mablag'lar monitoringi va boshqaruvi usullarini takomillashtirish;
- Qoldiq mablag'lardan mukammal foydalanish hisobini tuzish yo'llarini o'rganish va uni yanada takomillashtirish.
- Respublikamizda g'aznachilik bo'limlaridagi kadrlar kasbiy malakasi oshirish.

G'aznachilik tizimining O'zbekistonda joriy qilinishi orqali quyidagilarga erishildi:

- Quyi turuvchi byudjetdan mablag' oluvchilarni ko'p pag'onali moliyalashtirishga chek qo'yildi;
- Byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovi, xarajatlar smetasidagi har bir guruh xarajatlarning moddalari bo'yicha moliyalashtirish imkoniyati mavjud;
- To'lovlarni amalga oshirish muddatlari qisqartirildi.

3.2. O'zbekiston Respublikasi g'aznachilik tizimining rivojlanish bosqichlari va ilg'or xorij tajribalarni qo'llash imkoniyatlari

Bizga ma'lumki, g'aznachilik tizimi – yosh moliyaviy struktura. Shunga qaramasdan uning rivojlanish darajasi juda yuqori. Davlat moliyasini boshqarishda

g'aznachilik organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalar yildan-yilga oshib borayotganligidan xabardormiz.

Byudjet tizimi ijrosining g'aznachilik tizimida ko'pgina o'zgarishlar kuzatilmokda. Buning misoli sifatida respublikamizda 2005-2008 yillar mobaynida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanish kuzatildi: davlat byudjeti daromadlar hisobi va ularni byudjet tizimi bo'g'inlarida tartibga solish; mahalliy soliqlar va yig'imlar, respublika soliqlari, soliqsiz daromadlar hisobi; davlat va mahalliy byudjetlarining kassa ijrosi; quyi byudjetlarni moliyalashtirishning pog'onali moliyalashtirishga chek qo'yildi; byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazorat kuchaytirildi; mahalliy byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash muddati qisqartirildi va sifati yanada yaxshilandi;


G'aznachilik organlari, uch bosqichli ko'rinishidagi strukturadan iborat bulib, Davlat byudjetini boshqarishning negizini tashkil etadi. Aytish mumkinki, bu struktura orqali Davlat byudjetinig daromadlari shakllantiriladi. Shuningdek, G'aznachilik Davlat byudjeti mablag'larini tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Davlat byudjetining G'azna ijrosi to'g'risida"gi qonuni 2004 yil 26 avgust oyida Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 dekabrda 610-sonli qaroriga binoan Davlat byudjetining g'aznachilik tizimiga o'tish chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida 2005 yil 1 iyundan boshlab, Moliya vazirligi Samarqand viloyatida, jumladan, respublika byudjetidan moliyalashtiriluvchi ayrim byudjet tashkilotlari ishtirokida, Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosining ayrim elementlarini joriy etish boshlandi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi Davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisobvarag'iga kiritishdan, shuningdek Davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobvaraqdan to'lashdan iborat.²⁴

²⁴O'zbekiston Respublikasi «Davlat byudjetining g'aznachilik ijrosi to'g'risida»gi qonuni. Xalq so'zi 2004. 29 oktyabr. 4 modda

O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini joriy etish chora-tadbirlari sifatida:

- 2006 yil 1 yanvarda sharnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlar to'lovini nazorat qilish mexanizmini Surxandaryo, Sirdaryo, Buxoro, Namangan, Xorazm va Qoraqalpog'istonda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriluvchi byudjetdan mablag' oluvchilarni qamrab olish rejalashtirildi;
- 2006 yil 1 avgustda Samarqand viloyatida, 1 noyabrda Toshkent shahrida, 1 dekabrda Buxoro va Namangan vilotlarida hududiy g'aznachilik hisob raqami ochildi;
- 2007 yil 1 yanvardan sharnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va xarajatlar to'lovini nazorat qilish mexanizmini Farg'ona, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriluvchi byudjetdan mablag' oluvchilarni qamrab olindi;
- 2012 yil 1 yanvardan boshlab YAG'H respublika bo'yicha ishlashni boshladi.



8- rasm. Davlat byudjeti daromadlari g'azna ijrosi sxemasi²⁵

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti g'azna ijrosi. Me'yoriy huquqiy hujjatlar to'plami. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2008 y. 413 bet.

Bugungi kunda, 2013 yil 26 dekabrda qabul qilingan Byudjet kodeksi hamda Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g‘aznachiligi to‘g‘risida Nizom”i qabul qilindi va ushbu hujjat asosida ish olib borilmoqda. Gaznachilik tizimini samarali tashkil etish yuzasidan yana, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 16 sentyabrda 2007-son bilan ro‘yxatga olingan “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi qoidolari” normativ hujjati, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi “Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub’ektlarini jalb etishni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-1475-sonli Qarori qabul qilindi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, byudjet tizimi va byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va rivojlantirish ushbu mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Byudjet tizimi katta hajmdagi axborot oqimlari kesishuvining markazi hisoblanadi. Byudjet jarayonining axborot oqimlari oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilgani holda, ularni soddalashtirilgan tarzda qayta ishlash va avtomatlashtirish uchun bir tizimga solish va tartibga keltirish talab etiladi. Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan bu muammoning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olib, davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimini shakllantirish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilingan va maxsus dasturlar ishlab chiqilgan.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi bu axborotlarni tezlik bilan qayta ishlash uchun mo‘ljallangan iqtisodiy-matematik metodlar, modellar, dasturlar va texnologik vositalar yig‘indisidir.

Byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimlari real vaqt rejimida byudjet jarayoni (shu jumladan, byudjet ijrosi) axborot oqimlarining kompleks hisobini olib borish va iqtisodiy tahlilini amalga oshirish imkonini berali, ma‘lumotlarning haqqoniyligi va tezkorligini oshiradi va operativ tarzda tegishli oqilona boshqaruv qarorlarini qabul

qilishga imkon yaratadi.

Tabiiyki, mamlakatimizda byudjet jarayonini boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimini tashkil etish va rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo'lib, byudjet jarayonini boshqarishni to'liq avtomatlashtirish, ya'ni real vaqt (on-line) rejimida byudjet jarayoni axborot makonini yaratish maqsad qilib qo'yilgan.

Byudjet jarayonini boshqarishni avtomatlashtirishning dastlabki bosqichida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va uning hududiy bo'linmalarida "Global integratsiyalashgan axborot tizimi" (GIAT) va "Axborotni qayta ishlash korporativ axborot tizimi" dasturlari qo'llanib kelingan. Bu dasturlarning asosiy maqsadi qo'l mehnatini kamaytirish bilan bir qatorda, ishonchsiz ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan xatolar sonini kamaytirishga qaratilgan. Bu dasturlar moliya organlarining tor doiradagi vazifalarini qamrab olganligi, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va boshqa moliyaviy rejalar va hujjatlar ko'rsatkichlarini kompyuterda jamlashga mo'ljallanganligi, dasturlar majmualari uyg'unlashtirilmaganligi, ma'naviy eskirgan sodda texnologiyalarga asoslanganligi, byudjet jarayonining barcha bosqichlarini qamrab olish imkoniyatining yo'qligi bilan xususiyatlanadi.

Mamlakatimizda Davlat moliyasini boshqarish(DMB)ni isloh etish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri – davlat byudjeti g'azna ijrosining avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish va takomillashtirish hisoblanadi.

Bu strategik vazifani bajarish maqsadida "Davlat byudjetining g'azna ijrosi" dasturiy majmuasi yaratildi va bugungi kunda u davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida byudjet ijrosini boshqarishning samarali va istiqbolli avtomatlashtirilgan axborot tizimiga aylanib bormoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007 yil 1 noyabrdagi PQ-721-sonli Qaroriga muvofiq ravishda mamlakatimiz hududlarida "Davlat moliyasini

boshqarish tizimini isloh qilish” loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Mazkur loyiha negizida amaldagi davlat moliya tizimining faoliyatini qamrab oluvchi informatsion tizimni takomillashtirish ko’zda tutilgan.

2009-2012 yillar mobaynida nomi yuqorida zikr etilgan qarorga muvofiq (PQ-721-sonli) mamlakatimizda “Davlat moliya tizimini boshqarishning informatsion tizimi” deb nomlangan zamonaviylashtirilgan amaliy dastur bilan ta’minlash rejalashtirildi. Mazkur dasturning amalga tadbiq etilishi orqali butun respublikamiz hududida davlat byudjetining g’azna ijrosini ta’minlash bilan bog’liq barcha jarayonlarni qamrab olish imkoniyati yaratilmoqda.

Ayni vaqtda byudjet tizimi byudjetlarining barchasi uchun birdek ochiq bo’lgan tranzit tarzida harakatlanishi mumkin bo’lgan daromad (tushum)lar kirim qilinadigan maxsus hisobraqamlar yopilib, ularning o’rniga “Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi” (DMBAT) majmuaviy dasturi bo’yicha davlat byudjetining daromadlar qismiga kelib tushadigan tushumlar uchun alohida shaxsiy hisobraqamlarning ochilishi joriy etildi.

Moliya Vazirligi G’aznachiligi hamda uning joylardagi hududiy bo’linmalarining funktsional faoliyatini amaliy va normativ-huquqiy jihatdan ta’minlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Moliya Vazirligi G’aznachiligi o’z zimmasiga yuklatilgan funktsional faoliyatni amalga oshirishida joriy qonunchilik talablariga, shuningdek, ayni turdagi faoliyatga taalluqli jahon standartlari (MSBGUS, RSGF-2001)ga muvofiq ish yuritilishi ta’minlanadi.

O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G’aznachiligining tashkiliy tuzilmalari “Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi” (DMBAT) majmuaviy dasturining amaliyotga bevosita tadbiq etilish vaqtiga kelib ma’lum darajada optimallashtirildi. Shu maqsadda mavjud tizim negizida moddiy-texnik, informatsion va kadrlar bilan ta’minlanish jihatidan muayyan yangilanishlar qilindi.

“Davlat moliyasini boshqarishning axborot tizimi” (DMBAT) majmuaviy dasturining turli modullari orasida tegishli informatsiyalar bilan almashinuv

jarayonlari modullararo mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar paketning o'zak qismida hamda modul tizimining alohida sozlash tizimlarida joylashtirilgan. Modul paketining o'zak qismi normativ-spravochnik tipidagi informativ blokka ham ega. Ushbu informative blok negizida bajariladigan operatsiyalar klassifikatori, G'aznachilik hamda bank bo'linmalari haqidagi spravochniklarda saqlab qo'yiladi.

“Daromadlarni boshqarish” moduli yordamida davlat byudjetiga kelib tushadigan soliq to'lovlari va boshqa xil majburiy to'lovlarning turlari va ularning qaysi byudjet bo'g'iniga tushirilishi lozimligiga qarab ro'yxatga olib borish, belgilab qo'yilgan normativlarga muvofiq turli darajali byudjetlarga tushiriladigan mablag'larning kundalik taqsimlanishi haqida ma'lumotlar olish, yagona g'azna hisobraqami (YaG'HR)ga tushayotgan mablag'lar haqidagi kundalik ma'lumotlarni jamlash, byudjetga kundalik kelib tushgan soliq to'lovlari va ularning taqsimoti haqida ma'lumotlar bilan tanishib borish mumkin bo'ladi.

Davlat byudjetining daromadlar qismiga tushadigan mablag'lar jumlasiga amaldagi qonunchilik me'yorlariga muvofiq joriy etilgan soliq to'lovlari hamda boshqa xildagi majburiy to'lovlar (ular haqidagi to'liq ma'lumot DMBAT dasturiy majmuaning spravochniklarida saqlanadi) kiritiladi. Soliq to'lovchi sub'ektlar byudjetga to'lanadigan to'lovlarni barcha bank bo'linmalarida amalga oshirishlari mumkin, o'z navbatida mazkur bank bo'linmalari qabul qilingan mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahridagi Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazi (HKM) da ochilgan YaG'HRga tegishli maxsus hisobraqamiga o'tkazib beradi. Byudjetga to'lanadigan to'lovlar naqd pul ko'rinishida yoki pul o'tkazish yo'llari bilan amalga oshirilishi mumkin. To'lov operatsiyalaripul o'tkazish yo'li bilan bajarilganida zimmasidagi majburiyatlarini bajaruvchi sub'ektning zarur rekvizitlari (daromadlar kirim qilinadigan shaxsiy hisobraqamining kodi, soliq to'lovchining identifikatsion raqami (INN), kirim operatsiyalarining administrator (DSI, Bojxona organi)ning kodi, to'lovlar qachon amalga

oshirilganligi haqidagi ma'lumot, YaG'HRning hisob-kitob raqami ochilgan agent-bankning kodi) aks ettirilishi shart.

Moliya Vazirligi G'aznachiligining bo'linmalari "Daromadlarni boshqarish" modulining sozlovchi mexanizmlariga, qanday ish tartibiga sozlanganiga qarab, agent-bank beradigan ma'lumotlarni avtomatik tarzda yoki mexanik tarzda bajariladigan operatsiyalar yordamida qabul qilib olib, so'ngra olingan ma'lumotlar tegishli tartibda ishlanganidan keyin turli darajali byudjetlar bo'yicha taqsimlab beradilar. Tushgan daromadlarni turli darajali byudjetlar o'rtasida taqsimlab berish operatsiyasi amaldagi qonunchilik me'yorlariga muvofiq daromadlarni byudjetlar o'rtasida taqsimlash normativlariga asoslanib tayyorlangan maxsus spravochniklarga tayangan holda avtomatik tarzda bajariladi.

Davlat byudjetining kiritim qismiga tushadigan mablag'lar G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgani haqida ma'lumot olinganidan keyin daromadlar summasi haqidagi ma'lumotlar generatsiyalanib (bir erga jamlanib), tahlil qilinadi va shundan keyin jamlangan mablag'lar darajasiga qarab tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadigan byudjet mablag'lari miqdori aniqlanadi, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha muayyan operatsiyalar bajariladi, avtomatik tarzda G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgan absolyut summalar hamda har xil byudjetlarga ajratilgan mablag'lar haqidagi ma'lumotlar shakllantirilib saqlab qo'yiladi.

Ushbu modul G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgan mablag'larni qayd qilish va ular bilan bog'liq turli xil kassa operatsiyalarini bajarish bo'yicha quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beradi:

- G'aznachilikning YaG'HRga kelib tushgan kiritimlar hisobini yuritish (jumladan, kundalik tartibda YaG'HRga kelib tushgan summalar hamda turli xil byudjetlarga qaerdan va kimning nomidan kelgani aniqlanmagan mablag'lar haqidagi tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish va ishlash);

- belgilangan me'yordan ortiq miqdorlarda ilgariroq byudjetga

o'tkazilgan mablag'larni qaytarib berish hamda turli xil byudjetlarga qaerdan va kimning nomidan kelgani aniqlanmay qolgan mablag'larni egasini aniqlab qaytarib berish;

□ soliqning biron bir turi bo'yicha belgilangan me'yordan ortiq miqdorlarda byudjetga o'tkazilgan mablag'larni boshqa turdagi soliq to'lovlari bo'yicha mavjud qarzdorlik hisobiga o'tkazib tafovut o'rnini qoplash (amalda bo'lgan turli xil soliq to'lovlari bo'yicha balans hosil qilishga xizmat qiladi), shuningdek, tasniflanib ulgurilmagan kirimlarni turli xil darajadagi byudjetlarga ajratib berish.

□ mamlakat miqyosida yig'iladigan soliq va boshqa xildagi majburiy to'lovlarni turli darajadagi byudjetlarga o'tkazib berish imkonini beradi; eng muhimi, to'planadigan mablag'larni bir xilda quyi darajali byudjetdan yuqoridagisiga va aksincha, yuqori darajadagi byudjetdan quyi darajadagi byudjetlarga o'tkazib bera oladi;

□ o'zaro hisob-kitoblarni qayd etish asosida barcha kassa operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni jamlash uchun qulaylik tug'diradi, bundayimkoniyatning yaratilishi oqibat natijada aniq maqsadga yo'naltirilgan loyihalar bo'yicha xarajatlarni amalga oshirish vaqtida tomonlarning o'zaro hisob-kitoblarini qayd etish imkonini beradi;

□ dastur ish jarayonida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab tuzatish imkonini ham beradi;

□ byudjetga kelayotgan kirimlarni hamda ularni qaytarib berish bilan bog'liq kassa operatsiyalari bo'yicha turlicha hisobotlar tayyorlanadi, shuni hisobga olib, turli xil hisobotlarni tayyorlash mumkin bo'ladi;

□ modul tizimi negizida memorial orderlar haqidagi (jumladan, analitik buxgalteriya hisoblariga oid yozuvlar qayd etiladigan jamlangan (yig'ilgan, terma) memorial orderlarning tuzilgan vaqti, qayd qilish raqami haqidagi tegishli ma'lumotlarni) spravochnik o'rnatilishi mumkin bo'ladi;

Tizim bo'yicha turli xil ma'lumotlarni qabul qilib olish hamda masofaga uzatish uchun maxsus "Ma'lumotlarni qabul qilib ular bilan ishlash, uzatish" deb nomlangan modul ham yaratilgan. G'aznachilikning turli bo'linmalari hamda agentlik vazifasini bajaruvchi bank tizimi o'rtasida operativ tarzda kerakli ma'lumotlar bilan almashinuv jarayonini yo'lga qo'yish uchun maxsus kommunikatsiya tizimlari yordamida yoxud kurerlar vositasida ta'minlanadigan aloqa tizimi o'rnatilishi kerak. Bunday aloqa tizimidan foydalanish vaqtida agentlik vazifasini bajaruvchi bank tomonidan yozib beriladigan rasmiy hujjatlarning ko'chirma nusxasi G'aznachilikka elektron variantda yuboriladi. Ayni vaqtning o'zida agentlik vazifasini bajaruvchi bank tomonidan yozib beriladigan rasmiy hujjatlarning ko'chirma nusxalarini jamlab qo'yiladigan, harakati nazorat qilinadigan va o'zaro aloqadorlik munosabatlarida bo'lgan har ikki tomondan yuboriladigan rasmiy hujjatlar jumlasiga avtomatik tarzda kiritiladi. Yuqorida aytib o'tilgan operatsiyalarning avtomatik tarzda bajarilishini "Ma'lumotlarni qabul qilib ular bilan ishlash, uzatish" deb nomlangan modul ta'minlab beradi.

Davlat byudjetining daromad va xarajatlari moddalar bo'yicha amalga oshirilgan kassa operatsiyalariga asoslanib "Bosh kitob" deb nomlangan modul tomonidan G'aznachilikda yuritiladigan Bosh kitobda qayd etilishi uchun alohida ma'lumot tayyorlanadi. Bu xildagi ma'lumotlar har kuni kun davomida muntazam ravishda G'aznachilikka yuborib turiladi. G'aznachilik tarkibiga kiruvchi barcha bo'linmalardan kerakli ma'lumotlarni yig'ib olganidan keyin har kun davomida bir marotabadan jamlangan ma'lumotlar Bosh kitobda qayd etiladi va bajarilgan ishlar asosida joylarga tasdiqlangan ma'lumotlar yuboriladi.

Yaratilgan modul kommunikatsiya tizimidagi aloqalar nisbatan yomon ishlaganida, G'aznachilikning hududiy bo'linmalaridan yuboriladigan ma'lumotlarning kelishi nisbatan sust kechganida ham bir maromda ishlab turishga qodir.

G'aznachilikning har bir hududiy bo'linmasidan keladigan, u erda amalga oshirilgan kassa operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarga asoslanib hisobotlarni

generatsiyalovchi alohida modul yordamida har xil hisobotlar (byudjetning daromad qismiga kelib tushgan tushumlar, daromadlarning turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi, byudjetning xarajat qismi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar, byudjetdan xarajatlari amalga oshirilgan loyihalar, shuningdek, har qanday yig'ma va konsolidatsiyalangan hisobotlar) tayyorlash imkoniyati bo'ladi.

Tadbiq etilayotgan informatsion tizim yuqorida aytib o'tilgan asosiy funktsiyalardan tashqari, byudjetdan xarajatlari amalga oshiriladigan tashkilotlarga byudjetdan tashqari manbalardan ajratib beriladigan mablag'larning qabul qilinishi va sarflanishi haqidagi to'liq ma'lumotlarni avtomatik tarzda hisobga olib keyinchalik nazorat qilib borishga imkoniyat yaratib beradi.

Mamlakatimizda byudjet siyosatini takomillashtirishga qaratilgan faol ishlar olib borilmoqda, bu ishlar ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hisobiga byudjet tashkilotlarini moliyalashtirishni qisqartirishga yordam beradi. Mazkur vazifa dolzarb ahamiyatga ega. Ilgari respublikamiz hududida amalda bo'lgan byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tizimi alohida hollarda byudjet mablag'larining ortiqcha sarflanishiga olib kelardi. Davlat byudjetining g'azna ijrosi joriy etilishi munosabati bilan hamda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida "Byudjet tashkilotlarining pasportizatsiyasi" dasturiy majmuasini ishlab chiqish loyihasining amalga oshirilishi boshlandi. Ushbu loyiha byudjet tashkilotlari pasportlarining markazlashtirilgan tarzda saqlanishini ta'minlaydi, shuningdek byudjet tashkilotlarining haqiqiy ahvolini qiyoslash va monitoring qilish imkonini beradi. Byudjet tashkiloti pasporti rasmiy hujjat bo'lib, unda tashkilot bo'yicha umumiy ma'lumotlar, uning energetik ob'ektlari, yonilg'i- energetik resurslar va suv iste'moli hajmlari, resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari, shuningdek tashkilot balansida turgan binolar bo'yicha ma'lumotlar mavjud.

Byudjet tashkilotining pasporti – bu byudjet muassasasining hisobot shakli bo'lib, uning hisobot berish paytidagi holatini va unga sifatli byudjet xizmatlarini ko'rsatish imkoniyalarini aks ettiradi.

Byudjet tashkilotlari pasportizatsiyasining maqsadi quyidagilar:

- muassasalar va tashkilotlarga ajratilganby udjet mablag'laridan samarali va oqilona foydalanish;
- muassasalar, tashkilotlarning ular asosiy funktsiyalarini bajarish uchun zarur asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash;
- energetic xo'jaliklarning ob'ektiv ehtiyojlaridan va byudjetdan moliyalashtirish imkoniyatlaridan kelib chiqib tashkilotlar uchun yonilg'i-energetik resurslar va suv iste'moli limitlarini hisoblab chiqish.

Byudjet tashkilotlari rahbarlari 3 oyda kamida 1 marta moliya organlariga pasportlarni tuzish uchun ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. O'z navbatida, byudjet tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar belgilangan maxsus shaklda "O'zASBO" KDga ilova qilinadigan "Byudjet tashkilotlari pasportizatsiyasi" dasturiy kompleksiga kiritiladi. Taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirishni moliya organlari amalga oshiradi.

Pasportizatsiya maqsadlaridan bittasi tashkilotlar uchun yonilg'i-energetika resurslari va suvdan foydalanganlik uchun to'lovlar limitlarini hisoblab chiqishdir. Limitlar tashkilot ob'ektlari tomonidan resurslarning iste'mol qilinishining solishtirma ko'rsatkichlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Masalan, biror i ob'ekti uchun resurs iste'mol qilinishining solishtirma ko'rsatkichi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$r_i = W_i / (F_i * t_i),$$

bu erda, W_i — kuzatilayotgan t_i davrida ob'ekt tomonidan iste'mol qilingan resurs hajmi; F_i — ob'ekt tomonidan resurs iste'molini me'yorlashda qo'llaniladigan bazaviy ekspluatatsion ko'rsatkich.

Resursni iste'mol qilishning solishtirma ko'rsatkichi tashkilot ob'ektining energetic sig'imini xarakterlaydi. Bu ko'rsatkichning pasayishi ob'ektning energetic sig'imi pasayib, uning energetik samaradorligi oshayotganidan dalolat beradi. Energetik passport solishtirma ko'rsatkichlarining barcha qiymatlarini hisoblangan, haqiqiy va bazaviy ko'rsatkichlarga ajratish mumkin.

Solishtirma ko'rsatkichlarning hisoblangan qiymatlari texnik loyihalar,

davlat boshqaruv idoralari qarorlari, energiya ta'minoti, suv ta'minoti va suv chiqarish haqida shartnomalar shartlari asosida aniqlanadi.

Tijorat hisobi va energetik tekshiruvlar ko'rsatkichlari asosida olingan solishtirma ko'rsatkichlar qiymatlari Haqiqiy qiymatlardir. Solishtirma ko'rsatkichlarning bazaviy qiymatlari tashkilotlar tomonidan bazaviy iste'mol hajmlarini hisoblash uchun qo'llaniladi. Byudjet tashkilotlari faqat ayrim hisoblangan va haqiqiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlarni beradilar.

Taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida pasport doirasida qolgan hisoblangan va haqiqiy ko'rsatkichlar bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Yonilg'i-energetika resurslari va suv iste'molining bazaviy qiymatlari quyidagi qoidalardan kelib chiqib aniqlanadi:

1) umumiy holda solishtirma ko'rsatkichning bazaviy qiymati haqiqiy qiymatga teng deb qabul qilinadi;

2) agar solishtirma ko'rsatkichning haqiqiy qiymati ob'ekt uchun hisoblangan qiymatdan yuqori bo'lsa, solishtirma ko'rsatkichning bazaviy qiymati hisoblangan qiymatga teng deb qabul qilinadi;

3) solishtirma ko'rsatkichning haqiqiy qiymatlari bo'lmaganda, bazaviy qiymat sifatida hisoblangan qiymat qabul qilinadi.

Tashkilotning i ob'ektida resurs iste'moli hajmining bazaviy qiymati resursni iste'mol qilishning solishtirma ko'rsatkichining bazaviy qiymatidan (rib) kelib chiqib hisoblanadi:

$$W_{ib} = rib * F_i * t_{ib},$$

Bu erda t_{ib} — resurs iste'molining hisoblangan vaqt davri.

Tashkilot tomonidan resurs iste'mol qilinishi hajmining jami bazaviy qiymati tashkilotga tegishli alohida ob'ektlarda resurs istemoli hajmlarining xususiy qiymatlarini jamlash asosida aniqlanadi.

Tashkilotning resursni iste'mol qilganlik uchun to'lovlar bo'yicha limitlari quyidagi tarzda hisoblab chiqiladi:

$$Sl = T \cdot W_b \cdot k + S,$$

Bu erda T — iste'mol qilinadigan resurs uchun amaldagi tarif; W_b — resurs

iste'mol qilinishining bazaviy qiymati; k — resursni tejash topshirig'idan kelib chiqib, resurs tejalishini belgilab beruvchi koeffitsient; S — energiya tejamkorligi tarkibi.

Pasport byudjet muassasasi va tashkiloti tomonidan har yili hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvari holatiga tuziladi. Yangi tashkil etiladigan byudjet muassasalari va tashkilotlari pasportni davlat ro'yxatidan o'tishi sanasiga tuzadi. Pasport byudjet tashkiloti va muassasasining qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi paytigacha amal qiladi.

Byudjet mablag'lari oluvchilari belgilangan shaklda to'ldirilgan Pasportni kelishib olish uchun moliya organlariga (Moliya Vazirligiga) taqdim etishlari shart.

Moliya organlari (Moliya Vazirligi) ko'rib chiqish uchun qabul qilingan Pasportlarning to'liqligi va undagi ma'lumotlarning ishonchliligini, shuningdek belgilangan shakllarning o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tekshiradi, byudjet muassasalari va tashkilotlari pasportlarini tasdiqlaydi, byudjet muassasalari va tashkilotlari pasportlari reestrini shakllantiradi.

3-bob bo'yicha xulosa

Yuqorida bayon etilgan barcha o'zgarishlar, yangiliklar va mexanizmlar byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlashga, byudjet mablag'larining ularning so'nggi iste'molchilariga etib borish yo'llarini osonlashtirishga, bu yo'lda byudjet mablag'larining yo'qolib ketishiga yo'l qo'ymaslikka, byudjet tashkilotlarining ularga mol etkazib beruvchi kontragentlar bilan munosabatlarining ochiq-oydin, shaffof bo'lishini ta'minlashga, barcha byudjet tashkilotlarining elektron auksion savdolar tizimida teng huquqli hamkor sifatida ishtirok etishini engillashtirishga xizmat qilishi shubxasiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat moliyasini boshqarish tizimining asosiy bo'g'ini sifatida – G'aznachilik hisoblanadi, lekin har bir mamlakatlarda, ularning davlat tizimidan kelib chiqqan holda bu bo'g'inning funksiyalari turli xil bo'ladi. Umumiy aytadigan bo'lsak davlat moliyasini boshqarish yagona modelini ishlab chiqib bo'lmaydi, bu har bir mamlakatning ichki va tashqi omillariga bog'liqdir.

Xorijiy mamlakatlar g'aznachilik tizimi tajribalarini o'rgangan holda g'aznachilikning funksiyalariga respublikamizda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- Tahlil va funktsional rejalashtirish sohasida:
 - davlat operatsiyalarining monitoringi va tahlili, ya'ni g'aznachilik tizimidan olingan axborotlar asosida davlat operatsiyalarini tahlil qilish va hisobotlar tayyorlash;
 - moliyaviy faoliyatni rejalashtirish, shuningdek, g'aznaga kelib tushgan va chiqib ketgan pul oqimini rejalashtirish va xarajatlarning umumiy oylik limitini belgilash, Markaziy Bank bilan birgalikda pul operatsiyalari va pul qoldiqlarini nazorat qilish;
 - byudjet bajarilishini va byudjet jarayonlarini amalga oshirilishini baholash hamda monitoringini yuritish;
 - byudjet haqidagi o'tgan va joriy axborotlarni tahlil qilish lozim.
- Byudjetni boshqarish sohasida:
 - byudjet tayyorlash va uning bajarilishi;
 - hududiy va mahalliy boshqaruv organlari, ya'ni quyi turuvchi bo'g'inlarning operatsiyalarini nazorat qilish;
 - byudjetdan tashkari maksadli fondlar faoliyatini, mazkur fondlar va byudjet orasidagi moliyaviy oqimlarni boshqarish lozim.

Bizning fikrimizcha, byudjetdan fondlarning yuzaga kelishiga sabab, bu byudjetdan farqli o'laroq past darajadagi risklarni ta'minlashga intilishidir. Shu

sababli, ularning alohida ijtimoiy ahamiyatini hisobga olib, byudjetdan tashkari fondlarni g'aznachilik tizimiga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu holat Moliya Vazirligiga byudjetdan tashkari fondlarni samarali boshqarishga imkon beradi. Shuningdek, g'aznachilik hisob raqamida shakllangan va saqlanuvchi ortiqcha pul mablag'larini boshqarish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Iqtisodiyot taraqqiyotining hozirgi sharoitidan kelib chiqqan holda g'aznachilik tizimini takomillashtirishning muhim xususiyatli tomonlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

Birinchidan, ijtimoiy soha xarajatlarini o'z vaqtida va kerakli miqdorda moliyalashtirish uchun byudjetga etarli bo'lgan ushumni ta'minlash;

Ikkinchidan, aholini birinchi navbatidagi ehtiyojlarini qondirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan iqtisodiy sohalarni zarur darajada rivojlantirishni ta'minlash;

Uchinchidan, ishbilarmonlar xo'jalik faoliyatini rag'batlantirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratib berish zarurdir.

Bu tadbirlar pirovard natijada byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini keskin o'rttirish, Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash muddatlarini tezlatish va hisobotlarning sifatini yaxshilash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston, Toshkent. 2010. -32b.
2. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi. – T.: «Adolat», 2014 y. – 400 b
4. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 4 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-379-sonli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARAkatLAR STRATEGIYASI" PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 7 fevral.
6. ;O'zbekiston Respublikasining «Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti g'azna ijrosi. Me'yoriy- huquqiy hujjatlar to'plami. T. 2007. -35b.
7. Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari : O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 4 avgustidagi 69-son buyrug'iga Ilova // O'zbekiston Respublikasi Konun hujjatlari tuplami. -T., 2009. - № 38. - C. 113-167
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining G'aznachiligi to'g'risida Nizom Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 marti 53-son qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

9. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" / – T: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

10. Karimov I.A. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi”. - T: “O’zbekiston”, 2012. - 36 b.
11. Karimov I.A. “Bosh maqsadimiz–keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish”/T.: O’zbekiston. 2013y –64b.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent.:”O’zbekiston” NMIU,2017
13. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak.-Toshkent.:”O’zbekiston” NMIU,2017
14. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.:”o’zbekiston” NMIU,2017
15. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi .:”O’zbekiston” NMIU,2017

III. Darslik va o’quv adabiyotlari

16. Eshnazarov T. SH. O’zbekiston Respublikasida g’aznachilik tizimi asoslari. O’quv qo’llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2012. 304b
17. Qosimova G. A. Davlat byudjeti ijrosining g’aznachilik tizimi. O’quv qo’llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. 372b
18. Vahobov A., Burxonov U., Jumaev N Chet mamlakatlar moliyasi. Yangi asr avlodi. 2003. 327b.
19. Vahobov A., Burxonov U., Jumaev N Xalqaro moliya munosabatlari. Toshkent. Sharq. 2003. 400b.
20. Акпаров И.Г. Казначейская система исполнения бюджета в Российской Федерации. –М.: Финансы и статистика. 2002. 340с.
21. Бюджетная система Российской Федерации: Уч. Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской – 2-изд. М.: Юрайт, 2000. -615с.
22. Барри Поттер ва Джек Даймонд. “Создание системы азначейства”

IV. Davriy nashlar (gazeta va jurnallar)

23. Qosimova G.A. Pensiya ta'minotida ijtimoiy risklarni kamaytirish masalalari. \ Moliya. 2013. 3-son. 108-112b.
24. Qosimova G.A. Aripov K. Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotida xorijiy tajribalardan foydalanish. \ Biznes-Ekspert. 2013. 9-son. 50-52b.
25. Moliyachi ma'lumotnomasi №4 (40) 2015 yil.
26. Qosimova G. A. G'aznachilik tizimini joriy etishda xorij tajribasi // Bozor, pul va kredit. 2003. №3. 25-29b.
27. Qosimova G. A. G'azna majburiyatlarining xususiyatlari. // Bozor, pul va kredit. 2006 yil. №7-8. 27-28 b.
28. Abruev U. O'zbekistonda davlat byudjeti g'azna ijrosining asosiy maqsadlari va uziga xosligi. // Soliq solish va buhgalteriya hisobi-T., 2008. - № 8. - C. 28-31
29. 2008 yilning 25-28 fevral kunlari Istambul, Turkiyada bo'lib o'tgan PEMPAL loyihasi.
30. 2012 yilning 16-18 iyun kunlari JAR bo'lib o'tgan PEMPAL loyihasi.

V. Internet saytlari

31. <http://www.lex.uz> –O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami;
32. <http://www.mf.uz> –O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti;
33. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi;
34. <http://www.roskazna.ru> – Rossiya Federatsiyasi sayti ;
35. <http://www.worldbank.org> - Jahon banki sayti;
36. <http://www.hm-treasury.gov.uk> – Buyuk Britaniya G'aznachiligi sayti;
37. <http://www.ustreas.gov> - AQSH G'aznachiligi sayti;
38. <http://www.treas.gov> – Dunyo mamlakatli g'aznachilik sayti;
39. <http://www.legifrance.gouv.fr> - Frantsiya g'aznachiligi sayti.